

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI  
MILLIY ARXELOGIYA MARKAZI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.02/02.30.12.2019.Tar.45.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**MILLIY ARXELOGIYA MARKAZI**

**ELMURATOV BAHODIR ABDUGAPPAROVICH**

**JANUBI-G‘ARBIY QIZILQUMNING TOSH DAVRI  
MADANIYATLARI**

**07.00.06 – Arxeologiya  
(tarix fanlari)**

**Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent-2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**

**Contents of the abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) dissertation**

**Elmuratov Bahodir Abdugapparovich**

Janibi-G‘arbiy Qizilqumning tosh davri madaniyatlari.....3

**Элмуратов Баходир Абдугаппарович**

Культуры каменного века Юго-Западного Кызылкума.....29

**Elmuratov Bahodir Abdugapparovich**

Stone Age Cultures of South-Western Kyzylkum.....57

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список о опубликованных работ

List of published works.....61

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI  
MILLIY ARXELOGIYA MARKAZI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.02/02.30.12.2019.Tar.45.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**MILLIY ARXELOGIYA MARKAZI**

**ELMURATOV BAHODIR ABDUGAPPAROVICH**

**JANUBI-G‘ARBIY QIZILQUMNING TOSH DAVRI  
MADANIYATLARI**

**07.00.06 – Arxeologiya  
(tarix fanlari)**

**Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent-2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.PhD/Tar1150. raqami bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Milliy arxeologiya markazida bajarilgan.  
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)). Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.archaeology.uz) hamda «ZiyoNET» axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Sayfullayev Baxtiyor Qurbonovich**  
Tarix fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Suleymanov Rustam Xamidovich**  
Tarix fanlari doktori, professor

**Mirsoatova Sayyora Turgunovna**  
Tarix fanlari nomzodi, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Samarqand davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Milliy arxeologiya markazi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSs.02/02.30.12.2019. Tar.45.01. raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "12" 11, soat 19 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100170, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 81-uy.) Tel.: (+99871) 262-64-62; e-mail: [uzarchae@academy.uz](mailto:uzarchae@academy.uz)).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Milliy arxeologiya markazi kutubxonasi va Fanlar akademiyasi Fundamental kutubxonasida tanishish mumkin (79- raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100170, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Ziyolilar ko'chasi, 13-uy.) Tel.: (+99871) 262-74-58; Faks: (99871) 262-34-41).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "28" 10 kuni tarqatildi.  
(2025-yil "28" 10 dagi 9 - raqamli reyestr bayonnomasi).



**F. A. Maqsudov**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy  
kengash raisi, t.f.d., professor

**Z. O. Raxmonov**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy  
kengash ilmiy kotibi, t.f.b.f.d., k.i.x.

**A. A. Anarbayev**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash qoshidagi ilmiy  
seminar raisi, t.f.d., professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon miqyosida tarix fanining shakllanishi va rivojlanishida tosh davri arxeologiyasi, xususan, paleolit hamda neolit davrlariga oid alohida tadqiqotlar olib borishni taqozo etmoqda. Ushbu yoʻnalishda olib borilayotgan zamonaviy ilmiy izlanishlar, avvalo, arxeologik artefaktlarning madaniy-davriy xususiyatlarini, ularning paleoekologik muhiti hamda tabiiy-geografik landshaftlar bilan oʻzaro bogʻliqligini kompleks tarzda oʻrganishga qaratilgan. Ayniqsa, yangi arxeologik maʼlumotlarni ilmiy muomalaga kiritish, ularni aniq stratigrafik, texnologik va xronologik tahlil qilish orqali ilmiy asoslangan tadqiqotlar olib borish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyo paleolitshunosligida Janubi-gʻarbiy Qizilqum kabi kam oʻrganilgan istiqbolli hududlardan topilgan arxeologik artefaktlarni tizimlashtirish va tahlil qilishda yangi metodologik yondashuvlar qoʻllanilmoqda. Bu borada M. N. Brezillon, J. Peligrin kabi olimlarning texnologiyaga oid tadqiqotlari, V. T. Petrin hamda A. P. Derevyanko tomonidan Sharqiy va Markaziy Osiyo paleolitida qoʻllanilayotgan “mexanik eroziya” hamda boshqa fizik taʼsirlarni baholash usullariga oid izlanishlaridan topilmalarning tabiiy oʻzgarishlar darajasini aniqlash va arxeologik kontekstni tiklashda foydalanish zamonaviy arxeologiyaning tadqiq etishdagi dolzarb muammolaridan biri boʻlib qolmoqda.

Mamlakatimizda Qizilqum choʻli tabiiy-geografik tuzilmasi muhim oʻringa ega boʻlib, paleolit va neolit davrlarining madaniy markazlaridan biri sanaladi. Boshogʻitma ustaxonalari, Oyoqogʻitma botigʻi va neolit makonlari tosh ashyolarning tipologik hamda texnologik tahlili orqali ibtidoiy inson faoliyati, ijtimoiy munosabatlar va texnologik taraqqiyot haqida maʼlumot beradi. Organik moddalarning past saqlanishi sababli asosiy manba toshdan yasalgan ov va mehnat qurollaridir. Paleotexnologik va geoarxeologik usullar inson-tabiat oʻzaro munosabatlari hamda migratsiya jarayonlarini oʻrganish, jahon sivilizatsiyasidagi oʻrnini munosib baholash, yurtimiz hamda dunyo tarixini qiyosiy chuqur tahlil etish kabi vazifalar, shuningdek, Oʻzbekiston–Fransiya (MAFAC) hamkorligi va davlat koʻmagi bilan olib borilayotgan tadqiqotlar ushbu hududning ilmiy ahamiyatini yanada oshirayotganligi Qizilqum hududi, nafaqat Oʻzbekistonning, balki Orol-Kaspiyboʻyi qadimgi tosh davri madaniyatlari tarqalishining muhim chorrahasi ekanligini va bu tadqiqotning dolzarbligini koʻrsatadi.

Ushbu dissertatsiya Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli “2017-2021-yillarda Oʻzbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yoʻnalishi boʻyicha Harakatlar strategiyasi toʻgʻrisida”gi, Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 18-maydagi VM-292-sonli “Oʻzbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining yangidan tashkil etilgan ilmiy-tadqiqot muassasalari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi, 2018-yil 19-dekabrda PQ-40689-sonli “Moddiy-madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish sohasidagi faoliyatini tubdan yaxshilash toʻgʻrisida”gi, 2019-yil 21-sentabrdagi VM-792-sonli “Arxeologik tadqiqotlarni tubdan takomillashtirish

to‘g‘risida’gi 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-sonli “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi”gi, 2021-yil 30-oktabrdagi PQ-5270-sonli “Turizm, madaniy meros va muzeyshunoslik sohalarida malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida’gi qaror va farmonlari<sup>1</sup>da belgilangan ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirish, moddiy hamda madaniy merosini ilmiy o‘rganish, kengroq yoritib berish va boyitib borish kabi vazifalarni ma’lum darajada bajarishga xizmat qiladi.

**Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur dissertatsiya Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilish darajasi.** Qizilqum cho‘li hududidagi tosh davriga oid arxeologik yodgorliklarning o‘rganilishi XX asrning 1940-yillaridan boshlangan. Ushbu davrda O‘zboy bo‘ylari<sup>2</sup>, Sariqamish havzasi<sup>3</sup>, Xorazm<sup>4</sup>, Qizilqum<sup>5</sup> va Zarafshonning quyi oqimi<sup>6</sup>da neolit davriga oid Kaltaminor madaniyatiga mansub muhim arxeologik obyektlar aniqlanib, ilmiy jihatdan o‘rganildi. Mazkur tadqiqotlar natijasida Kaltaminor madaniyati jamoalari O‘rta Osiyo va Janubi-g‘arbiy Qozog‘iston hududlarida keng tarqalganligi, ular tomonidan o‘zlashtirilgan hudud hamda xronologiya “Kaltaminor tarixiy-madaniy jamoalari” nomli ibora bilan ilmiy muomalaga kiritilganligini tasdiqlandi<sup>7</sup>.

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “2017–2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармони // <https://lex.uz/docs/3107036>; 2018 йил 18 январдаги “Моддий маданий ва археология мероси объектларини муҳофаза қилиш ва улардан фойдаланишни такомиллаштириш тўғрисида”ги Фармони // <https://lex.uz/docs/3506332>; 2017 йил 17 февралдаги “Фанлар академияси фаолияти, илмий тадқиқот ишларини ташкил этиш, бошқариш ва молиялаштиришни янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Қарори // <https://lex.uz/docs/-3117025>; Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 16 февралдаги “Ахсикент археология мероси объектини муҳофаза қилиш ва тадқиқ этиш ёдгорлик мажмуасини ташкил қилиш тўғрисида”ги // <https://lex.uz/docs/3382160>; 2019 йил 21 сентябрдаги 792-сон “Археологик тадқиқотларни тубдан такомиллаштириш тўғрисида”ги Қарорларида // <https://lex.uz/docs/4524476>; 2020 йил 29 октябрдаги 6097-сонли “Илм-фани 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги Фармони // <https://lex.uz/docs/5073447>.

<sup>2</sup> Итина М. А. Памятники первобытной культуры верхнего Узбоя // ТХААЭЭ. Т. 2. – М., 1958. – С. 37.

<sup>3</sup> Толстов С. П., Кесь А. С., Итина М. А., Андрианов Б. В. Низовья Аму-Дарьи, Сары-Камыш, Узбой. История формирования и заселения // МХЭ. – М., 1960. – №3. – С. 77.

<sup>4</sup> Виноградов А. В. Раннекельтеминарская стоянка Кунык I // КСИЭ. Вып. 30. – М., 1958. – 545 с.; О‘sha muallif: Новые неолитические находки Хорезмской экспедиции АН СССР в 1957 г. // МХЭ. Вып. 4. – М., 1960. – С. 12; О‘sha muallif: Новые материалы для изучения кельтеминарской культуры // МХЭ. Вып. 6. – М., 1963. – С. 36.

<sup>5</sup> Тереножкин А. И. Археологическая рекогносцировка в Западной части Узбекистана // ВДИ. – 1947. – №2. – С. 134; Вактурская Н. Н. О поездке в Южные Кызылкумы в 1955 г. // МХЭ. Вып 1. – М., 1959. – С. 165.

<sup>6</sup> Гулямов Я. Г. Археологические работы к западу от Бухарского оазиса // ТИИА. Вып. 8. Т. 1956. – С. 14.

<sup>7</sup> Виноградов А. В. Древние охотники и рыболовы Среднеазиатского междуречья // ТХАЭЭ. XIII. – М., 1981. – С. 114; О‘sha muallif: Кельтеминарская культура. Автореф. дисс...канд. ист. наук. – М., 1957. – С. 11; О‘sha muallif: К вопросу о южных связях кельтеминарской культуры // СЭ. – 1957. – №1. – С. 44; О‘sha muallif: Древние охотники и рыболовы Среднеазиатского междуречья // ТХАЭЭ. XIII. – М., 1981. – С. 118; О‘sha muallif: Brunet F. Comment penser la néolithisation en Asie centrale (X<sup>e</sup>-IV<sup>e</sup> millénaires) ? L’émergence de nouveaux modèles de sociétés entre sédentaires et nomades // Paléorient. – Paris. 2011. – №37/1. – P. 187–204.

Kaltaminor madaniyatini o'rganishdagi asosiy muammolardan biri – uning keng miqyosda tarqalishiga qaramay, stratigrafik jihatdan ishonchli yodgorliklarning kamligidir. Shu jihatdan, 1995-yilda O'zbek-Polsha<sup>8</sup> qo'shma arxeologik ekspeditsiyasi tomonidan ochilgan Oyoqog'itma I ilk neolit makoni alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur obyektidagi tadqiqotlar 2005-yildan boshlab O'zbekiston-Fransiya qo'shma ekspeditsiyasi (MAFANAC) doirasida davom ettirildi. Keng ko'lamli stratigrafik, arxeologik va sedimentologik tadqiqotlar natijasida ma'lum bo'lishicha, kaltaminorliklar faqat ovchi-baliqchilar bo'lib qolmay, chorvachilikning dastlabki bosqichlariga ham o'tgan, sopol ishlab chiqarish va toshga ishlov berish sohalarida yuksak mahorat namoyon etganlar<sup>9</sup>.

Janubi-g'arbiy Qizilqumdagi paleolit va neolit yodgorliklarini o'rganish ishlari 1969-yilda A. V. Vinogradov hamda E. D. Mamedovlar tomonidan Qorasigir va Oyoqog'itma botig'ida olib borilgan dastlabki qidiruvlar bilan boshlangan<sup>10</sup>. Ushbu tadqiqotlar 1980-yillarga qadar davom ettirilgan bo'lib, natijalar A. V. Vinogradovning “Древние охотники и рыболовы Среднеазиатского междуречья” nomli monografiyasida umumlashtirilgan<sup>11</sup>.

2021-yilda Janubi-g'arbiy Qizilqum hududida O'zR FA Milliy arxeologiya markazining paleolitchilar guruhi tomonidan tadqiqotlar olib borildi<sup>12</sup>. Natijada, Oyoqog'itma va Boshog'itma botiqlari hududidan Oyoqog'itma II makoni, Oyoqog'itma 1-11-punktlari, Boshog'itma 1-3-topilmajoy kompleksi kabi paleolit hamda neolit davrlariga oid bir qator yangi yodgorliklar ochib o'rganildi. Ushbu yodgorliklar arxeologik materiallarini yangi usullar yordamida o'rganish, ularning madaniy-davriy xususiyatlari va O'rta Osiyo tosh davri madaniyatlari tizimida tutgan o'rnini aniqlash tanlangan mazkur dissertatsiyaning mavzusi hisoblanadi<sup>13</sup>.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Ushbu tadqiqot O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Milliy arxeologiya markazi “Landshaft arxeologiyasi bo'limi”ning 2021-2025-yillardagi “O'zbekistonning tosh davri tabiiy landshafti va toshga ishlov berish texnikasi rivojlanish dinamikasi” ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga kiritilgan.

---

<sup>8</sup> Szumchak K., Khujanazarov M. Exploring the Neolithic of the Kyzyl-KumsAjakagytma “the site” and other collection. – Warszawa, 2006.

<sup>9</sup> Brunet F. Du neolithique a l'age du bronze en asie centrale (VII<sup>e</sup>–III<sup>e</sup> millénaire): émergence de sociétés complexes dans un contexte de « mondialisation». – Paris, 2016. – P. 174.

<sup>10</sup> Виноградов А., Мамедов Э. Кызылнур I – первый мустьерский памятник в Кызылкумах // СА. – 1969. – №1. – С. 84–97.

<sup>11</sup> Виноградов А. В. Древние охотники и рыболовы Среднеазиатского междуречья. // ТХАЭЭ. XIII. – М., М-1981. – С. 52.

<sup>12</sup> Сайфуллаев Б. Қ. Қизилқумда янги археологик топилмалар // Мозийдан садо. – 2021. – №4/92. – Б. 21.

<sup>13</sup> Сайфуллаев Б. Қ., Элмуратов Б. А. Бухоро вилоятининг Гиждувон ва Пешку туманларида 2021 йилда олиб борилган археологик дала-қидирув тадқиқотлари // Ўзбекистонда археологик тадқиқотлар. – Самарқанд, 2022. – №14. – Б. 146–150; O'sha mualliflar: Новые неолитические памятники юго-восточной части Кызылкум / Международного научного семинара «От Подонья до Памира: вопросы изучения неолита». – Новосибирск: ИАЭТ СО РАН, 2023. – С. 40–41; O'sha mualliflar: New Ayakagitma-2 Neolithic Site Of South-West Kyzylkum // Western European Journal of Historical Events and Social Science. – Berlin, 2024. Volume 1, Issue 5. – P. 1–5;

Элмуратов Б. А. Жануби-ғарбий Қизилқумнинг палеолит даври топилмажойлари / О'rta Osiyo moddiy madaniyati tarixi. Xalqaro ilmiy konferensiya materiallari. – Toshkent, 2023. – B. 91–95.

**Tadqiqotning maqsadi** Janubi-gʻarbiy Qizilqum hududidan topilgan tosh davriga oid yangi yodgorliklarning madaniy-davriy xususiyatlari, Oʻrta Osiyo tosh davri madaniyatlari tizimida tutgan oʻrni va ahamiyatini aniqlashdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

Oyoqogʻitma botigʻidan topilgan yangi topilmajoylar (1-11-punktlar) ning tosh industriyalarini keng qiyosiy va yangi texnik-tipologik usullar yordamida tadqiq qilish orqali ularning nisbiy xronologik xususiyatlarini aniqlash;

geomorfologik, qiyosiy va texnik-tipologik usullar yordamida Oyoqogʻitma II neolit makoni hududidan topilgan tosh buyumlarining kelib chiqishi hamda xronologik xususiyatlarini aniqlash;

fizik taʼsirlar hamda texnik-tipologik usullar yordamida Boshogʻitma 1-2-komplekslari materiallarining madaniy xususiyatlarini aniqlash;

Boshogʻitma 3-kompleksi materiallarini Orolboʻyi va Oʻrta Zarafshon vohalari texnokomplekslari bilan keng qiyosiy tahlil qilish asosida ularning madaniy xususiyatlari hamda Janubi-gʻarbiy Qizilqum hududining Oʻzbekiston ibtidoiy tarixida tutgan oʻrnini aniqlash.

**Tadqiqotning obyekti** Janubi-gʻarbiy Qizilqumning Boshogʻitma va Oyoqogʻitma botigʻi tosh davri aholisi hisoblanadi.

**Tadqiqotning predmetini** Janubi-gʻarbiy Qizilqumning Boshogʻitma va Oyoqogʻitma botigʻi tosh davri aholisining moddiy-madaniyat buyumlari – tosh qurollar, nukleuslar hamda plastinalar tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada arxeologik artefaktlarni tizimlashtirishda M. N. Breziyon (Fransiya) “texnik-tipologik” va J. Peligrin (Fransiya) “Toshlarni chaqmoqlashning texnologik usullari” hamda V. T. Petrin (Rossiya) va A. P. Derevyankolarning (Rossiya) “mexanik eroziya” yoki “fizik taʼsirlar” kabi usullaridan foydalanildi. Tosh artefaktlarning deflyatsiya darajasini aniqlash asosida davrlashtirishga bagʻishlangan ushbu usuldan dastlab Moʻgʻulistondagi Argalant I topilmajoyi materiallarini tadqiq qilishda muvaqqatiyali foydalanilgan<sup>14</sup>.

Arid zonalar sharoitida koʻpincha yagona arxeologik manba sifatida tosh buyumlar kolleksiyalari xizmat qiladi, shuning uchun ham ularni oʻrganish usullari muhim ahamiyatga ega. Tosh artefaktlar yuzasining saqlanish darajasi aralash komplekslarni oʻrganish va nisbiy davrlashtirishda hal qiluvchi rol oʻynaydi. Maʼlumki, barcha togʻ jinslari arid iqlim sharoitlarida intensiv yemiriladi. Shubhasiz, kelib chiqishi va fizik xususiyatlariga koʻra turlicha boʻlgan materiallar destruktiv taʼsirlarga turlicha reaksiya bildiradi. Dezintegratsiya jarayonlari va togʻ jinslarining yemirilishi quyidagi bir qator omillarga bogʻliq boʻladi:

1. Ekzogen (mexanik eroziya yoki fizik taʼsirlar) – harorat oʻzgarishlari, sovuq yemirishi, deflyatsiya va korroziya.

2. Endogen (biologik destruksiya) – suvoʻtlari, moxlar va oʻsimlik ildizlari, shuningdek, qurt-qumursqa hamda hayvonlar taʼsiridagi oʻzgarishlar.

---

<sup>14</sup> Деревянко А. П., Петрин В. Т., Цэвээндорж Д., Девяткин Е. В., Ларичев В. Е., Васильевский Р. С., Зенин А. Н., Гладышев С. А. Каменный век Монголии: Палеолит и неолит северного побережье Долины озер. – Новосибирск: ИАЭТ СО РАН, 2008. – С. 204.

3. Kimyoviy eroziya – erish, ohaklashish, gidrokislotalashish va gidratatsiya.

Ma'lumki, laborator tadqiqotlarsiz turli destruktiv omillarning buyumlar yuzasiga ta'sirini aniqlash imkonsiz. Shuning uchun hodisaning mohiyatini belgilovchi "shartli" atamalar ishlab chiqilgan (masalan, "deflyatsiya"). Arid sharoitlarda deflyatsiya artefaktlar yuzasiga ancha katta va stabil ta'sir ko'rsatgan omillar hisoblanadi.

Destruktiv omillarga, shubhasiz, antropogen omillar ham kiradi<sup>15</sup>. Konkret misol sifatida Argalant I topilmajoyi materiallarini ko'rsatish mumkin<sup>16</sup>. Yodgorlikdagi tosh qurollarning qirralarida retushlarning toza negativlaridan tashqari deflyatsiyaga uchragan retushlari ham mavjud, garchi, xomashyoning teginilmagan yuzasidan kamroq deflyatsiyaga uchragan bo'lsa ham. Shuning uchun birinchi guruhga – kuchli deflyatsiyaga uchragan, ikkinchisiga – o'rtacha, uchinchisiga esa toza, ya'ni deflyatsiyaga uchramagan buyumlar kiritilgan<sup>17</sup>. Ushbu usul janubiy-g'arbiy Qizilqumning tosh davri materiallarini o'rganishda to'liq mos kelishi aniqlandi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

tosh industriyasida pichoqsimon plastinalar, byuske tipidagi murakkab kesgich va qirralaridan biri o'tmaslashtiruvchi retushlar yordamida ishlangan tosh plastinalarning topilishiga asoslanib, Oyoqog'itma 1-11-punktlari so'nggi paleolit davriga oidligi isbotlangan;

Oyoqog'itma II neolit makoni bir madaniy qatlamdan iboratligi, ushbu hududdan topilgan tosh buyumlar tarkibidagi plastinkalar orasida Kaltaminor madaniyati ikkinchi bosqichiga xos o'q uchining mavjudligiga ko'ra, u so'nggi neolit davriga oidligi aniqlangan;

Boshog'itma toshga ishlov berish ustaxonasi 1-2-to'plami tosh artefaktlarining saqlanish darajasi, industriya tarkibida ordinar chaqmoqlash texnikasi va oddiy qirg'ichlarning mavjudligi, toshlarni chaqmoqlash og'ir ushatg'ichlar yordamida amalga oshirilganligi tufayli o'rta paleolitning tipik mustye variantiga oidligi hamda hududiy jihatdan Orol-Kaspiybo'yi madaniyatlariga o'xshashligi isbotlangan;

Boshog'itma toshga ishlov berish ustaxonasining 3-to'plami industriyasi esa parallel levallua texnikasining ustunligi va toshlarni chaqmoqlashda yengil tosh ushatg'ichlarning qo'llanilganligiga asoslanib, so'nggi paleolit davrining parallel-levallua madaniyatiga oidligi hamda O'rta Zarafshon vohasi madaniyatlari bilan bog'liqligi dalillangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Ilmiy izlanishlar bugungi kunda keng ko'lamda o'rganilgan tarix fani hamda tadqiqot usullari asosida arxeologik

---

<sup>15</sup> Петрин В. Т. К проблеме сохранности комплексов каменных изделий с территории Монголии // Методы реконструкции в археологии. – Новосибирск: Наука, 1991. – С. 250-269.

<sup>16</sup> Деревянко А. П., Петрин В. Т., Цэвээндорж Д., Девяткин Е. В., Ларичев В. Е., Васильевский Р. С., Зенин А. Н., Гладышев С. А. Каменный век Монголии: Палеолит и неолит северного побережье Долины озер. – Новосибирск: Изд-во ИАЭТ СО РАН, 2008. – С. 204.

<sup>17</sup> Деревянко А. П. Первоначальное заселение человеком Северной, Центральной и Средней Азии. Новосибирск. Изд-во ИАЭТ СО РАН. 2017. – С. 173.

artefaktlar va tarixiy adabiyotlardan foydalanilgan holda ulardagi ilmiy yangiliklardan olingan xulosalar asosida izohlash mumkin.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Dissertatsiyada Janubi-g'arbiy Qizilqumdan topilgan arxeologik artefaktlar bugungi kunda O'zbekiston tarixi va uni yordamchi tarmoqlari uchun keng ko'lamli amaliy hamda nazariy bilimlarni yanada chuqurroq o'rganish, tosh davrini yoritish, ilmiy tadqiqot muassasalari va oliy o'quv yurtlari uchun maxsus kurslarda fan tarmoqlarini rivojlantirishda xizmat qiladi.

Ilmiy izlanishlar natijalarida berilgan umumiy xulosa, taklif va tavsiyalar yurtimiz tarixi hamda arxeologiyasi, kishilik jamoalari tarixini keng ko'lamda boyitishda xizmat qiladi. Mazkur ilmiy-tadqiqot tosh davri arxeologik artefaktlarini davrlashtirish, komplekslarga ajratish, toshlarni ilmiy muomalaga kiritish orqali tosh davri bilan shug'ullanuvchi mutaxassislariga o'quv qo'llanma sifatida muhim ahamiyatga ega.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.**

“Janubi-g'arbiy Qizilqumning tosh davri madaniyatlari” mavzusidagi dissertatsiya bo'yicha qo'lga kiritilgan ilmiy natijalar asosida:

Boshog'itma 1-2-kompleksi o'rta paleolitga oid topilmajoylari tipik mustye, Oyoqog'itma II hamda ushbu botiqdagi 1-11-punktlar va Boshog'itma 3-komplekslari esa so'nggi paleolit davri yodgorliklari ekanligi aniqlangan. Dissertatsiyada ilmiy jihatdan tahlil qilingan moddiy manbalar, xorijiy va mahalliy ilmiy adabiyotlar, ilmiy asosga ega bo'lgan xulosa takliflar O'zbekistonning paleolit davri tarixini o'rganish, boy moddiy va madaniy merosni anglashga xizmat qiladi, uni kelajak avlodga to'laligicha yetkazish, turizm sohasini rivojlantirish borasidagi Xalqaro “Oltin meros” xayriya-jamoat fondi amaliy tadbirlarini o'tkazish hamda istiqboldagi rejalarini belgilashda keng foydalanilgan (Xalqaro “Oltin meros” xayriya-jamoat fondining 2024-yil 23-iyuldagi 01/29-sonli ma'lumotnomasi). Bu esa, o'z navbatida, Janubi-g'arbiy Qizilqum tosh davri odamlarining moddiy va madaniy hayoti to'g'risida yangi ma'lumotlar bilan tanishishlariga xizmat qilgan;

tosh industriyasida pichoqsimon plastinalar, byuske tipidagi murakkab kesgich va qirralaridan biri o'tmaslashtiruvchi retushlar yordamida ishlangan tosh plastinalarning topilishiga asoslanib, Oyoqog'itma 1-11-punktlari hamda Oyoqog'itma II neolit makoni yuzasidan topilgan materiallar so'nggi paleolit davriga oidligi isbotlanganligi hamda Boshog'itma toshga ishlov berish ustaxonasi 1-2-to'plami tosh artefaktlarining saqlanish darajasi, industriya tarkibida ordinar chaqmoqlash texnikasi va oddiy qirg'ichlarning mavjudligi, toshlarni chaqmoqlash og'ir ushatg'ichlar yordamida amalga oshirilganligi tufayli o'rta paleolitning tipik mustye variantiga oidligi hamda hududiy jihatdan Orol-Kaspiybo'yi madaniyatlariga o'xshashligi isbotlanganligi haqidagi xulosalaridan O'zbekiston Milliy Teleradiokompaniyasi “O'zbekiston tarixi” telekanalida efirga uzatiladigan “Taqdimot” dasturi ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (“O'zbekiston tarixi” Davlat muassasasining 2024-yil 3-dekabrda №02-31-1239-sonli ma'lumotnomasi). O'z o'rnida, ushbu ko'rsatuv teletomoshabinlarga Janubi-

gʻarbiy Qizilqum tosh davri odamlarining moddiy va madaniy hayoti toʻgʻrisida yangi maʼlumotlar bilan tanishishlariga yaqindan yordam bergan;

Oyoqogʻitma II neolit makoni bir madaniy qatlamdan iboratligi, ushbu topilmajoy hududidan topilgan tosh buyumlar tarkibidagi plastinkalar orasida Kaltaminor madaniyatining ikkinchi bosqichiga xos kamon oʻqining mavjudligiga koʻra, soʻnggi neolit davriga oidligi aniqlanganligi hamda Boshogʻitma toshga ishlov berish ustaxonasining 3-toʻplami industriyasi esa parallel levallua texnikasining ustunligi va toshlarni chaqmoqlashda yengil tosh ushatgʻichlarning qoʻllanilganligiga asoslanib, soʻnggi paleolit davrining parallel-levallua madaniyatiga oidligi hamda Oʻrta Zarafshon vohasi madaniyatlari bilan bogʻliqligi dalillanganligidan Oʻzbekistonning eng qadimgi tarixi boʻyicha koʻrgazmalar qilishda foydalanilgan (Oʻzbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining 2024-yil 29-noyabrdagi №3/1255-2664-sonli dalolatnomasi). Natijada, “Oʻzbekiston tarixi davlat muzeyi” eksponatlari orasida joylashtirilgan ushbu buyumlar muzeyga tashrif buyuruvchilarda Janubi-gʻarbiy Qizilqum hududida yashagan ajdodlarimizning hayot tarzi, toshga ishlov berish texnologiyalari, xoʻjaligi va madaniy hayoti boʻyicha toʻlaqonli tasavvurlar hosil qilishlariga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 6 ta ilmiy konferensiya va seminarlar, shu jumladan, 2 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalar hamda Samarqand arxeologiya institutida oʻtkazilgan yillik dalatadqiqot hisobot yigʻinlarida muhokama qilingan.

**Tadqiqot natijalarining eʼlon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi boʻyicha jami 12 ta ilmiy ishlar, jumladan, ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, ulardan 4 tasi Oʻzbekiston Respublikasi OAK tomonidan tavsiya qilingan va 2 tasi tegishli fan tarmogʻi rivojlangan xorijiy mamlakatlarning nufuzli ixtisoslashgan ilmiy jurnallarida eʼlon qilingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati va ilovalardan iborat. Uning tadqiqot qismi 130 betni tashkil qiladi. Dissertatsiyaga 60 bet (250 ta) foto va chizmalardan iborat illustrativ albom ilova qilingan.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning birinchi bobi “**Tabiiy-geografik sharoiti va tosh davri oʻrganilishi tarixi**”ga bagʻishlangan boʻlib, u uchta paragrafdan iborat. Birinchi paragrafda “**Tabiiy-geografik sharoiti**” bayon qilingan. Qizilqumning tabiati, oʻsimliklari, choʻkindi jinslari va tuprogʻi bir xil, maydoni 300 ming km<sup>2</sup> I. P. Gerasimov Qizilqum choʻlini geomorfologik tuzilishiga koʻra, uchta asosiy hudud, yaʼni shimoliy, markaziy va janubiy qismlarga ajratib, har bir qismning tektonik, geologik hamda denudatsion xususiyatlarini ilmiy asosda tavsiflagan<sup>18</sup>.

Qizilqum choʻli oʻzining keng miqyosdagi tabiiy-geografik tuzilmasi bilan alohida eʼtiborga loyiq. Uning geomorfologik tarkibi shartli ravishda janubi-gʻarbiy, markaziy va shimoliy qismlarga boʻlinadi:

---

<sup>18</sup> Аббасов С. Б. Қизилқум чўли ландшафтлар динамикаси ва экологияси.. – Самарқанд, 2019.. – Б. 28.

1. Janubi-gʻarbiy Qizilqum – Zarafshon deltasi tekisligi va botiqlar bilan xarakterlanadigan hudud boʻlib, togʻ manzaralari bilan ajralib turadi. Mazkur mintaqadagi geostrategik joylashuv, suv manbalariga yaqinligi va togʻli relyefning mavjudligi paleolit hamda neolit davrlarida inson faoliyati uchun qulay sharoit yaratgan.

2. Markaziy Qizilqum asosan, Boʻkantogʻ va Yetimtogʻning shimoliy-sharqida joylashgan keng qumli tekisliklardan iborat boʻlib, turli qum uyumlari hamda platolar hosil qilgan.

3. Shimoliy Qizilqum – Amudaryo va Sirdaryo paleovodiyarlari hamda qadimgi delta tekisliklari bilan chegaralangan.

Qizilqumdagi tosh togʻlarning hozirgi past relyefi mezozoy va uchlamchi davrdagi subtropik iqlim taʼsiridagi nurash hamda denudatsiya<sup>19</sup> jarayonlari natijasidir. Qizil rangli togʻ jinslari asosan, qizil tuproqlar nurashidan hosil boʻlib, qumlarga oʻziga xos rang baxsh etgan. Ammo choʻlning barcha qismida ham qizil rang uchramaydi. Masalan, Janubiy Qizilqumdagi qumlar koʻp holatda toʻq-kul rangda boʻlib, bunday koʻrinish Zarafshon daryosining allyuvial yotqiziqlari taʼsirida shakllangan. Qum uyumlari koʻproq meridional yoʻnalishda boʻlib, oʻsimliklar tomonidan mustahkamlangan boʻlib, ular orasidagi past joylarda taqirlar ham uchraydi. Bunday taqirlar asosan, bahorda vaqtinchalik suv bilan toʻlib, yozda quruydi va shiftini quruq, yoriqli shaklda qoldiradi.

I bobning 2-paragrafi **“Paleolit davri yodgorliklarining oʻrganilishi”**ga bagʻishlangan. Qizilqum hududida paleolit davri topilmalari asosan A. V. Vinogradov tomonidan oʻrganilgan va ularning katta qismi choʻlning janubi-gʻarbiy qismiga toʻgʻri keladi<sup>20</sup>. A. V. Vinogradovning taʼkidlashicha, 1) Oʻrta Osiyo choʻllarida aniqlangan va yaxshi oʻrganilgan paleolit davri yodgorliklari oʻrta paleolitga xosdir; 2) ushbu hududlarda soʻngi paleolit davri yodgorliklari deyarli aniqlanmagan; 3) mezolitning oxiri va neolit (X-VIII mingyilliklar) davrining boshlarida Qizilqum, Qoraqum, Muyunqum, Shimoliy Qoraqum (Orolboʻyidan shimolroqda), Ustyurt platosi va boshqa joylar demografik portlash oqibatida u yoki bu darajada oʻzlashtiriladi; 4) arxeologik materiallarning guvohlik berishicha, faqatgina mil.avv. III mingyillik oxiri va II mingyilliklarda ushbu choʻllardan aholi koʻchib ketishi boshlanadi<sup>21</sup>. Ushbu hududlarga odamning koʻchishi keng miqyosli xarakterga ega<sup>22</sup>.

Janubi-gʻarbiy Qizilqum hududida paleolit davri topilmajoylari asosan Qorasigir botigʻidan topilgan. Uning sharqiy bortida Qizilnura-I makoni joylashgan. 1970-yilda botiqning sharqiy sohili makondan janub va shimol

---

<sup>19</sup> Denudatsiya lotincha denudatio – “koʻchish”, “yemirilish” degan maʼnodan kelib chiqqan. Bu tashqi geodinamik kuchlar (yogʻingarchilik, shamol, harorat oʻzgarishi, yotqiziqlar ogʻishi va tirik organizmlar faoliyati) taʼsirida toshloq togʻ jinslari va yuza qatlamlarining yemirilib, koʻchib, pastki zonalarga koʻchishi va landschaftning tekislashishiga olib keladigan jarayondir.

<sup>20</sup>Виноградов А. В., Мамедов Э. Кызылнура 1 — первыймустьерский памятник в Кызылкумах. - СА№ 1, 1969. – С. 84-97.

<sup>21</sup> Виноградов А. В. Древние охотники и рыболовы Среднеазиатского междуречья // ТХАЭЭ. XIII. М., 1981.- С.35.

<sup>22</sup> Виноградов А. В. Древние охотники и рыболовы Среднеазиатского междуречья // ТХАЭЭ. XIII. М.,1981. – С. 54.

tomonlarda tadqiq qilingan. Bu yerdan asosan sohilda va ba'zan ikkinchi terrasadan bir nechta kam sonli, atipik, kuchli silliqlangan va patinizatsiyalashgan topilmalarga ega bir nechta punkt aniqlangan (Qizilnura 2-7). Shunga o'xshash, biroq ko'proq topilmalarga ega, o'ta silliqlangan va patinizatsiyalashgan industriyali punktlar botiqning g'arbiy sohilidan ham topilgan (Qizilnura 8-20). Ular qatoriga jigarrang-kulrang kremniylashgan jinslar konlari plastlari yaqinida joylashgan Qizilnura 15 yirik ustaxonasini kiritish mumkin<sup>23</sup>.

Dissertatsiya I bobining **3-paragrafi "Neolit davri yodgorliklarining o'rganilishi"**ga bag'ishlangan.

O'rta Osiyoda neolit davriga oid arxeologik tadqiqotlar Qizilqum cho'l mintaqasida keng ko'lamda o'rganilishi XX asrni II choragida 1939-yil 15-avgustda S. P. Tolstov<sup>24</sup> boshchiligidagi Xorazm arxeologik-etnografik ekspeditsiyasi Amudaryo yoki Aqchadaryoning qadimiy deltasida Jonbos-IV manzilgohini topilishi "Kaltaminor madaniyati"<sup>25</sup> tushunchasi fanga kiritildi bu neolit davri bosqichini yangi topilmajoylarini keng ko'lamda arxeologik tadqiqotlar o'tkazish uchun zamin yaratdi. Ko'p o'tmay, neolit davriga tegishli bo'lgan ko'plab boshqa joylar topildi: Kaltaminor madaniyati miloddan avvalgi VI-III mingyilliklarga to'g'ri keladi. Qizilqum hududlardan topilgan neolit davri yodgorliklarining barchasi Jonbos IV artefaktlari bilan qiyosiy anoalogiya tarzida solishtirib o'rganila boshladi. Markaziy Osiyodagi Kaltaminor madaniyati neolit davri makonlardan boshqa madaniyatlaridan keskin tarzda ajralib turuvchi madaniyat shakldagi arxeologik Xorazm arxeologik ekspeditsiyasining ko'p yillar mobaynida izlanishlarning asosiy maskani bo'lib xizmat qilgan. Ushbu izlanishlar samarasida Kaltaminor madaniyatiga tegishli bo'lgan yodgorliklar aniqlandi.

Bular: Xorazm hududi<sup>26</sup> va O'zboy bo'ylari<sup>27</sup>, Sariqamish<sup>28</sup> kabilardir. Zarafshoni quyi oqimi hududi, Qizilqumda yangi arxeologik topilmajoylarda izlanishlar olib borildi. Ushbu vohalardagi izlanishlar natijasida, neolit yodgorliklari ko'plab topildi. Darbozaqir I va II makonlari aniqlandi<sup>29</sup>. Shu o'rinda, Kaltaminor madaniyati sohiblari Markaziy Osiyo va Janubi-g'arbiy Qozog'iston hududlari bo'ylab yoyilib o'z hayot tarzini o'tkazganligi ilmiy jihatdan o'z isbotini topdi. Kaltaminor madaniyat sohiblari yashagan joylar hamda tarixiy vaqtlarni inobatga olgan holda, arxeologiya sohasiga Kaltaminor tarixiy-

---

<sup>23</sup>Виноградов А. В., Мамедов Э. Кызылнур I — первыймустьерский памятник в Кызылкумах. - СА№ 1, 1969. - С. 84-97.

<sup>24</sup> Виноградов А. В. Неолитические памятники хорезма. М-1968. - С-11.

<sup>25</sup> Толстов С. П. Хорезмская археологическая экспедиция 1940 г. (четвертый полевой сезон работ экспедиции). //КСИИМК. Вып. 12. 1946. - С.34.

<sup>26</sup>Виноградов А. В. Раннекельтеминарская стоянка Кунык 1. // КСИЭ. Вып. 30. М., 1958. - С.545; Виноградов А. В. Новые неолитические находки Хорезмской экспедиции АН СССР в 1957 г. // МХЭ. Вып. 4. М., 1960. -С.12. Виноградов А.В. Новые материалы для изучения кельтеминарской культуры // МХЭ. Вып. 6. М., 1963.-С. 36.

<sup>27</sup>Итина М.А. Памятники первобытной культуры верхнего Узбоя // ТХААЭЭ. Т.2. М., 1958. -С. 37.

<sup>28</sup>Толстов С. П., Кесь А. С., Итина М. А., Андрианов Б. В. Низовья Аму-Дарьи, Сары-Камыш, Узбой. История формирования и заселения. // МХЭ. 3. М., 1960. - С. 77.

<sup>29</sup>Исламов У. И. Кельтеминарская культура на Махандарье. // НРС. Ташкент. 1961. - С. 38; Исламов У. И. Открытие неолитической культуры на Махандарье // ОНУ. Вып 1. Ташкент, 1961.-С.8; Исламов У.И. Открытие неолитической культуры на Махандарье // ОНУ. Вып.1. Ташкент, 1961.-С.39.

madaniy jamoalari (Кельтаминарская историко-культурная общность) iborasi olib kirilgan. Kaltaminor madaniyati alohida etnik va til guruhiga oid jamoalardan tarkib topganligi va bu boradagi fikrlar adabiyotlarda ilgari surilgan<sup>30</sup>. Janubi-gʻarbiy Qizilqum hududlarida A. V. Vinogradov keng qamrovli ilmiy izlanishlarni amalga oshirgan, Kaltaminor madaniyatiga doir yangi yodgorliklarda tadqiqotlar oʻtkazib va ilmiy tekshirishlar olib bordi. Kaltaminor madaniyatini mahalliy guruhlarga boʻlish va ularni tarixiylik asosida davrma-davr tizimlashtirishdagi muammolarga, izlanuvchilar tomonidan bunga aniqlik kiritgan. A. V. Vinogradov koʻp vaqt izlanishlar olib borishi natijasida Kaltaminor madaniyati yodgorliklarini uchta xududiy guruhlarga: gʻarbiy Qozogʻiston Oqchadaryo, va Oʻzboy boʻldi.

Qizilqum variantiga kiradigan yodgorliklarni ham A. V. Vinogradov alohida guruhga boʻlish kerakligini keltirib oʻtgan<sup>31</sup>. Vaqt oʻtishi bilan quyi Zarafshon guruhiga ham boʻlishini ajratgan edi, keyinchalik ushbu guruh Tuzkon guruhi deb ilmiy adabiyotlarga kiritilgan. Kaltaminor madaniyati yodgorliklarini davrlashtirish yuzasidan 1957-yilda A. V. Vinogradov ikki bosqichga, ilk va soʻnggi davrlarga boʻldi<sup>32</sup>. Zarafshon daryosining Qizilqum boʻylab suv yoʻnalishi boʻylaridagi, Daryolisoy oʻzanidagi Oyoqogʻitma hududida yaxshi saqlandan madaniy qatlama ega bir qancha yodgorliklarni oʻrganib, ularda qazishmalar olib borgan. Kaltaminor madaniyatiga doir yodgorliklarni A. V. Vinogradov yangi arxeologik kompleks natijalari orqali Daryolisoy bosqichiga aniqlik kiritish dolzarb ekanligining ilmiy jihatlarni isbotlab berdi hamda uning xronologik davrini mil.av. VI mingyillik bilan sanalash kerak degan oʻz xulosasini bergan<sup>33</sup>.

Keyinchalik Kaltaminor madaniyati uch guruhga ajratildi. Ilk guruhi Daryolisoy boʻlib (mil.avv. VI mingyillik), Jonbos-IV rivojlangan davr (mil.avv. V-IV mingyilliklar), Saksovul yoki Qamishli davri soʻnggi guruhga boʻldi (mil.avv. III mingyillikning ikkinchi yarmi-II mingyillikning boshlanishi)<sup>34</sup>.

Ushbu davrlashtirishning tizimlashtirilishiga koʻra:

1) Daryolisoy guruhi ilk neolit (mil.avv. VI mingyillik bilan sanalandi) Uchashi 131, Hoʻjagumbaz 5, Lavlakon (birinchi va ikkinchi guruhi), Oyoqogʻitma I va Beshbuloq. Tosh industriyadagi texnik-tipologiyasi hamda plastinalarga asoslangan holda va asimmetrik trapesiyalar mavjudligi, “shoxsimon” trapesiyalarga koʻra geometrik shakllari asosida, qirgʻichlar, qirralaridan biri oʻtmaslashtirilgan tosh qurollarda nomoyon boʻlgan. Yaxshi pishirilmagan sopol buyumlari, loyi tarkibida oʻsimlik qoldiqlari bor (shakl jihatdan qoʻngʻiroqsimon, sharsimon, tuxumsimon koʻrinishlarga ega), naqshlari kam uchraydi. Suyak industriyasida bir qancha tigʻlar mavjud.

2) Jonbos yoki oʻrta neolit bosqichi (mil.avv. V-IV mingyilliklar): Jonbos-IV, Tolstov makoni, Yalpoq, Kosmola, Oyoqogʻitma deltasi, Oyoqogʻitma II, Lavlakon 26, Darvozaqir I va II, Jonkeldi kabilarni oʻzida mujassamlashtiradi.

<sup>30</sup>Исламов У. И. Неолитическая культура в низовьях Зарафшана. Автореф. дисс... канд.ист. наук. Л., 1963. – С. 16.

<sup>31</sup>Виноградов А. В. Кельтеминарская культура. М.: Автореф. дисс... канд.ист. наук. М., 1957.-С. 11.

<sup>32</sup>Yuqoridagi asar... – С. 44.

<sup>33</sup>Yuqoridagi asar... – С. 118.

<sup>34</sup>Исламов У. И. Открытие неолитической культуры на Махандарье // ОНУ. Вып.1. Ташкент, 1961. – С. 119.

Plastinalar asosida tosh industriyasi “Kaltaminor tipidagi kamon o‘qlari” (наконечники стрел) orqali ifodasini topadi. Sopoldan ishlangan mahsulotlarda qumli loydan ishlangan; geometrik shakllar bilan pardozlangan yumaloq yoki chuqur tag qismi mavjudligidadir. Suyak industriyasi esa o‘z guruhiga uzun va nishli qurollarni qamrab oladi. Chig‘anoqlar hamda qush suyaklaridan ishlangan munchoq va marjonlarni ham uchratish mumkin.

3) So‘nggi neolit davri (mil.avv. III mingyillikning ikkinchi yarmi II mingyillikning boshlanishini o‘z ichiga oladi) Jonbos V va XI, Tojiqozgan II, III, VI, X va Lavlakon makonlaridir). Tosh industriyasida ikki taraflama ishlangan materiallar ko‘rinishi bilan yaqqol ko‘rish mumkin. Plastinalar chaqmoqlanish usulari va trapesiyalarning ko‘rinishida saqlab qolgan. Ushbu davrga doir madaniy qatlamlarda juda kam uchratish mumkinligi yoki ilk bronza davri bilan aralashib ketganligini ko‘rishimiz mumkin<sup>35</sup>.

Ushbu tizimlashtirishga oid, ilk Kaltaminor madaniyati sohiblarining sopol idishlar xarakterlanishiga ko‘ra: naqshlangan, yumaloq tubli va o‘tkir tubli sopolarda uchratishimiz mumkin. Tosh ashyolarida ya‘ni mikrolitga oid industriyasda plastinkalardan ishlangan va o‘ng va chap latarel qismlari esa o‘yib-kertib ishlangan paykonlar juda ommalashgan. Shu o‘rinda, bifasial ishlangan bargsimon poykonlar, ba‘zan trapesiyalarda ham uchratish mumkin (er.av. IV mingyillikning oxiri va III mingyillikning boshlari)<sup>36</sup>. So‘nggi Kaltaminor sohiblari davrida esa yassi tubli xurmachasimon sopol idishlar shakllanadi hamda va ushbu idishlarning ko‘pchilik katta qismi naqshsiz bo‘lgan, oldingi murakkab kompozitsion sxemalar yo‘qoladi<sup>37</sup>. Chaqmoqtoshlardan chaqmoqlangan tosh buyumlar orasida bifasial ishlangan paykonlar keng yoyilgan. Asariyat nayzalar yoki uloqtiriladigan nayzalar paykonlari hamda uchirindilar va yirik plastinalardan ishlangan pichoqlar paydo bo‘la boshlagan. A. V. Vinogradovning fikriga asoslanib, turli makonlar va topilmajoylar materiallarini solishtirish orqali ishlab chiqilgan xronologik jadvalda so‘nggi bosqichning sanasini mil.avv. III mingyillikning ikkinchi yarmi va II mingyillikning boshlari bilan belgilanadi<sup>38</sup>.

Mustaqillikning ilk yillarida Vatanimizdagi neolit davriga oid yangi arxeologik yodgorliklaridan biri – Oyoqog‘itma I ilk neolit makonida keng ko‘lamdagi tadqiqotlar olib borildi. Bu ilmiy izlanishlar xalqaro hamkorlik doirasida amalga oshirilib, Qizilqum hududida topilgan Kaltaminor madaniyatiga tegishli bo‘lgan Oyoqog‘itma I ilk neolit makoni 1995-yili O‘zbekiston-Polsha<sup>39</sup> xalqaro qo‘shma arxeologik ekspeditsiyasi tomonidan keng ko‘lamda o‘rganilib, dala qidiruv ishlari amalga oshirildi. Madaniy qatlamlari yaxshi saqlangan arxeologik yodgorlik topildi va tadqiqot ishlari yetti yil davom etdi. Yodgorlikning

<sup>35</sup>Брюне Ф. О новом исследовании неолитической Кельтеминарской культуры //Археология и история Центральной Азии в трудах французских ученых. Т.1. Самарканд. 2014. – С. 39–40.

<sup>36</sup>Виноградов А. В. Древние охотники и рыболовы Среднеазиатского междуречья // ТХАЭЭ. XIII. М., 1981. – С. 119.

<sup>37</sup>Yuqoridagi asar... – С. 118–120.

<sup>38</sup>Виноградов А. В. Кельтеминарская культура. М., Автореф.дисс. канд...ист. наук. М., 1957. – С. 17.

<sup>39</sup>Szumchak K., Khujanazarov M. Exploring the Neolithic of the Kyzyl-Kums Ajakagytna —the sitel and other collection. Warshawa, 2006.

qatlamlaridan bir qancha namunalar olindi. Oyoqog‘itma ilk neolit makoning davriy sanasiga aniqlik kiritildi. Unga ko‘ra Oyoqog‘itma  $7180\pm 20$  to  $4460\pm 80$  mingyilliklar bilan sanalandi<sup>40</sup>.

A. V. Vinogradov fikricha Kaltaminorning ilk bosqichi bilan sanalangan - Daryosoy tosh ashyolari 6000-5000-yillar bilan sanalangan bo‘lsa, O‘zbekiston-Polsha xalqaro ekspeditsiyaning Oyoqog‘itma I ilk neolit makonidagi ilmiy xulosalari 8000-7500-yillar bilan darvlashtirildi. “Neolit davri aholisining iqtisodi avval boshdan shoxli hayvonlarni, qo‘y, echkilarni, ko‘paytirishga qaratilgan bo‘lgan. Shuningdek, xo‘jalikda tuya va otlar ham muhim rol o‘ynagan”.

Dissertatsiyaning II bobi “**Boshog‘itma va Oyoqog‘itma botiqlarining tosh davri yodgorliklari**” deb nomlanib, u oltita paragrafdan tarkib topgan. Ikkinchi bob Boshog‘itma botig‘i sharqiy bortida joylashgan paleolit davri yodgorliklarining tadqiqiga bag‘ishlangan. Mazkur bobning “Boshog‘itma o‘rta paleolit davri birinchi kompleksi” deb nomlangan birinchi paragrafida tosh buyumlari texnik-tipologik va morfologik tadqiq qilingan.

Boshog‘itma 1-kompleks tosh buyumlari o‘rta darajada deflyatsiyaga uchragan. Tosh buyumlar asosan jigarrangli kremniylardan ishlangan va boshqa davrlarga oid materiallar bilan birgalikda botiqning sharqiy bortida sochilib yotadi. Biroq bu kolleksiyaning tosh buyumlari boshqa materiallardan saqlanish darajasiga hamda tarkibida ikkilamchi ishlov berilgan qurollar – kombinatsiyalashgan qurollar (3 ta), ordinar burchak kesgichlar (2 ta), qirg‘ichlar (8 ta), tishsimon-kertik qurollar (5 ta), tosh pichoqlar (3 ta), tag yo‘nishli buyumlar (2 ta), retushlangan uchirindi (1 ta) va tig‘ (1 ta) kabilarning mavjudligi bilan ajralib turadi. To‘plamda atigi ikkita nukleus mavjud bo‘lib, ulardan biri bir yuzadan chaqmoqlangan ikki qarama-qarshi zarb maydonli va plastinasimon yo‘nilg‘ilar olishga mo‘ljallangan yonlama o‘zaklardan iborat.

Kolleksiyaning katta qismini uchirindilar tashkil qiladi (51 ta). Ularning saqlanib qolgan zarb maydonchalari (33 ta) tekis (11 ta), ikki qirrali yoki ikki fasetkali (7ta), fasetkalashtirilgan (5ta), chiziqsimon (3ta) va tabiiy zarb maydonchali (7ta). Uchta holatda uchirindilarning zarb maydonchalari retushlanib, atayin kesilgan. Qolgan uchirindilarning (15ta) zarb maydonchalari tabiiy singan.

Boshog‘itma 1-kolleksiyasidan aniqlangan tosh qurollar kolleksiyasi tipologik va texnologik jihatdan o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Kolleksiyada, asosan, 167 ta artefaktlar yig‘ib olingan bo‘lib, o‘rta hajmli uchirindilar, ayrim nukleuslar, turli tipdagi qirg‘ichlar, kesgichlar, tig‘lar hamda tishsimon va kombinatsiyalashgan qurollardan tashkil topgan. Qurollar tarkibining bunday xilma-xilligi, ularning faol ishlatilganligi va yuqori darajada ixtisoslashgan mehnat faoliyatiga mo‘ljallanganligini ko‘rsatadi.

II bobning 2-paragrafi botiqdan topilgan yana bir o‘rta paleolit davri kompleksi Boshog‘itma 2-kompleksi tosh buyumlarining texnik-tipologik tadqiqiga bag‘ishlangan.

---

<sup>40</sup>Хошимов.Х. Б, Оёқогитма макони-илк неолит даври тош индустрияси Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) Автореферати Самарқанд–2019. 13-бет

Boshog'itmaning ushbu kompleksi asosan slaneslardan ishlangan tosh buyumlarning ustunligi bilan ajralib turadi. To'plamda ikkilamchi ishlov berilgan tosh qurollar uchramaydi. Kam sonli nukleuslari (5 ta) yirik uchirindilardan ishlangan va asosan kalta proporsiyali uchirindilar chaqmoqlab olingan. Uchirindilarning (134 ta) aksariyati tekis zarb maydonchali (75 ta). Shuningdek, to'plam uchirindilari orasida kam sonli fasetkalashtirilgan (10 ta), chiziqsimon (10 ta) va ayrim ikki qirrali (2 ta) zarb maydonchalilari ham uchraydi. Ushbu to'plam Boshog'itm 1-kolleksiyasidan madaniy va davri jihatdan ham farq qiladi. Boshog'itma 2-kompleks to'plami tosh buyumlari 139 ta tosh buyum aniqlangan bo'lib ular patina bilan qoplangan, biroq tashqi deflyatsiyaga uchramagan. Shuningdek tosh qurollarning mavjud emasligi topilmajoyni toshga birlamchi ishlov berishga mo'ljallangan tom ma'nodagi ustaxonalar darajasiga ko'taradi. Levallua texnikasi uchramaydi.

II bobning uchinchi paragrafi Boshog'itma uchunchi kompleksi so'nggi paleolit davri topilmajoyi tosh buyumlarining texnik-tipologik tadqiqiga bag'ishlangan. Saqlanish darajasi va ishlanish texnikasiga ko'ra, Boshog'itma botig'idan so'nggi paleolit davrini xarakterlaydigan tosh buyumlar seriyasi ajratildi. Ushbu kompleksda bir dona uzunchoq va tor proporsiyali plastinalar olishga mo'ljallangan yonlama nukleus, retushlangan plastina (1 ta), tosh pichoq (1 ta) va tishsimon (2 ta) qurollar aniqlandi. Yo'nilg'ilari orasida levallua plastinalar (15 ta) va uchirindilar (17 ta) asosiy o'rin tutadi. Shuningdek to'plamda 3 ta ikki qirrali dorsalli plastinalar va 3 ta levallua tipidagi uchirindilar ham mavjud. Uchirindilardan biri flank tipidagi texnik yo'nilg'i hisoblanadi.

To'plam oddiy uchirindilarining aksariyati kichik hajmdaligi va yupqaligi bilan ajralib turadi. Bu uchirindilarning zarb maydonchalari tekis (4 ta), fasetkalashtirilgan (6 ta) va chiziqsimon (3 ta) xarakterga ega. Chiziqsimon xarakterdagi uchirindilar orasida yengil ushatg'ich yordamida chaqmoqlab olinganlari ham uchraydi. Dorsallarining xakteri asosan uzunasiga subparallel.

Shunday qilib, Boshog'itmaning ushbu kompleksida 43 dona innovatsion o'zgarishlardan biri yo'nilg'ilarni yengil ushatg'ichlar yordamida chaqmoqlab olish amaliyotining mavjudligidadir. To'plamda ordinar yo'nilg'ildan tashqari parallel-levallua tipidagi plastinalar chaqmoqlab olish amaliyoti katta o'rin tutadi.

II bobning 4-paragrafi **Oyoqog'itma botig'i so'nggi paleolit davri topilmajoylari (1-11-punktlar)** materiallarining texnik-tipologik tadqiqiga bag'ishlangan. 2012-yilning kuzida O'zbekiston-Polsha-Fransiya xalqaro hamkor ekspeditsiyasi Oyoqog'itma botig'ining sharqiy tomonidan so'nggi paleolit davriga tegishli 11 ta punkt aniqladi (49 ta tosh buyum). A. V. Vinogradov topilmalaridan farqli ravishda bu yerdan ilk marotaba levallua nukleuslar, ko'p fasetkali kesgich topilgan<sup>41</sup>. Bundan tashqari, 11 ta punktdan yer yuzasidan uchirindilar, plastinalar, nukleuslar, kesgichlar va tishsimon-kertikli qurollar ham aniqlangan. Ularning deyarli barchasi patina bilan qoplangan kremniylardan ishlangan.

---

<sup>41</sup>Сайфуллаев Б. К. Новые данные по палеолиту Аякагитминской впадины //Ўзбекистонда археологик тадқиқотлар//Самарканд.,2012. – Б. 217–220.

Tadqiqotchilarning fikricha, ushbu 11 ta punktdan topilgan tosh buyumlar Orol-Kaspiybo‘yi hududining so‘nggi paleolitga oid materiallariga o‘xshashliklarga ega hamda mos ravishda yuqori paleolit davri bilan sanalangan<sup>42</sup>.

II bobning 5-paragrafi Oyoqog‘itma II paleolit davri topilmajoyi tosh industriyasining morfologik va texnik-tipologik tadqiqiga bag‘ishlangan.

2021-yilning yoz oylarida O‘zR FA Milliy arxeologiya markazi va «Acwa Power Bash Wind» MChJ o‘rtasida tuzilgan xo‘jalik shartnomasiga binoan Milliy arxeologiya markazi va Samarqand davlat universitetining mutaxassislaridan tarkib topgan guruh Qizilqumning janubi-g‘arbidagi Oyoqog‘itma botig‘i atrofida loyihada belgilangan hududda arxeologik dala-qidiruv tadqiqot ishlarini amalga oshirdi. Natijada, Oyoqog‘itma botig‘ining shimoliy bortidan neolit davriga (mil.avv.VII-V mingyilliklar) oid yangi Oyoqog‘itma II neolit makoni va shuningdek makon hududi yer ustidan va uning atroflaridan 100 dan ortiq paleolit davriga oid ishlov berilgan tosh buyumlar yig‘ib olindi. Bu topilmalar kremniydan ishlangan uchirindi va ayrim plastinalardan tarkib topgan. Ushbu buyumlarning tashqi tomoni o‘rta darajadagi deflyatsiyaga uchragan.

II bobning 6-paragrafi **Oyoqog‘itma II neolit makonining** o‘rganilishiga bag‘ishlangan. Makonning hududi (dengiz sathidan balandligi 222 m, koordinatalari: 40°40'23.98"C; 64°32'51.60"B) 130x70 m maydonni egallagan va uch tomondan jarliklar bilan kesilgan. Yodgorlikning sharqiy tomoni baland tepalikka tutashgan, janubiy tomonidagi jarlik va uning katta qismi yuvilib ketgan. Makonda 40 sm qalinlikdagi bitta madaniy qatlam saqlanib qolgan. Qazishmalarning ko‘rsatishicha, ushbu qatlamdan keyin qalin balchiqli yotqiziqlar boshlanadi. Makonda amalga oshirilgan 3 ta shurfdan (2x1m) jami 475 ta neolit davriga oid tosh buyumlar yig‘ib olingan. Ular orasida qalamsimon nukles, plastina, plastinka va mikroplastinkalar uchraydi. Tosh qurollar kam sonli va ular qirralari retushlangan, o‘tmaslashtirilgan plastinalar va bir dona kaltaminor tipidagi kamon o‘qidan tarkib topgan. Qatlamdan shuningdek mayda sut emizuvchilarning ezilgan suyaklari hamda oxra qoldiqlari topildi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Tosh davri yodgorliklarining madaniy va davriy xususiyatlari”** deb nomlangan. Bobning 1-paragrafi **“Analogiya va xronologiya masalalari”** va unda davrlashtirish muammolari tahlilga tortilgan.

Janubi-g‘arbiy Qizilqum hududi paleolit davri topilmajoylarining xronologiyasi texnik-tipologik jihatdan A. V. Vinogradov tomonidan mustye davriga oid deb topilib<sup>43</sup>, so‘nggi paleolit davri yodgorliklari uchramasligi haqidagi tezis ilgari surilgan edi<sup>44</sup>.

Oyoqog‘itma II makoni hududidan topilgan paleolitga oid tosh buyumlar saqlanish darajasi va ishlanish texnikasiga ko‘ra botiqda aniqlangan 1-11-punktlari materiallariga o‘xshashdir.

Xronologik jihatdan Oyoqog‘itma II neolit makoni hududidan topilgan paleolitga oid tosh buyumlar saqlanish darajasi (yengil deflyatsiya) va ishlanish

<sup>42</sup>Сайфуллаев Б. К. История археология Турана №3 Самарканд. 2017. – С. 36.

<sup>43</sup>Виноградов А. В. Древние охотники и рыболовы Среднеазиатского междуречья. – М., 1981 – С. 172.

<sup>44</sup>Yuqoridagi asar... – С. 173.

texnikasiga ko‘ra so‘nggi paleolit davrining o‘rtalari bilan sanalanishi mumkin. Bu haqda materiallarning tashqi qalin patinadan tashqari, yengil darajada deflyatsiyaga uchraganligi, shuningdek uchirindilarning qalinligi, massivligi, zarb tepaliklarining va sharnirlarining yorqin ifodalanganligi bilan bir qatorda, parallel dorsalli plastinalarning hamda qirralaridan biri o‘tmaslashtirilgan plastinalarning mavjudligi guvohlik beradi.

Janubi-g‘arbiy Qizilqum hududi paleolitga oid topilmajoylarini A. V. Vinogradov yagona levallua mustye davri komplekslariga kiritgan (Qizilnura I, Qorasigir botig‘i). Ularga analogiyalar sifatida Teshik-toshning quyi qatlamlari keltiradi va bu yodgorliklar xronologik jihatdan ham bir-biriga yaqin, degan fikrni ilgari surgan. Kamroq o‘xshashliklar Qayroqqum, Xojikent va O‘rta Osiyoning boshqa qator levallua-mustye yodgorliklarida ham uchrashi aniqlangan<sup>45</sup>.

Kremniyli industriyaga ega **Boshog‘itma** 1-kolleksiyasi o‘rta darajada deflyatsiyaga uchragan tosh buyumlardan iborat. Ular asosan jigarrang rangdagi kremniylardan ishlangan va boshqa davrlarga oid materiallar bilan birgalikda botiqning sharqiy bortida sochilib yotadi. Biroq bu kolleksiyaning tosh buyumlari boshqa materiallardan saqlanish darajasiga hamda tarkibida ikkilamchi ishlov berilgan – tosh qurollar seriyalarining mavjudligiga ko‘ra farq qiladi. Topilmajoyni bir vaqtlar makon bo‘lgan deyish mumkin. Saqlanish darajasi, uchirindilarning xarakteristikasi va qurollar tarkibiga ko‘ra Boshog‘itma 1-kompleksi tosh buyumlari Ustyurtdagi Qoraquduq I<sup>46</sup> materiallariga o‘xshashliklarga ega bo‘lsada, unda Oyoqog‘itma II paleolitga oid kompleksidagidek plastinalar aniqlanmadi. Har ikkala komplekslarda ham levallua texnologiyalari uchramaydi. Ushbu komplekslarni birlashtirib turuvchi yana bir xususiyat, bu ularning har ikkalasida ham o‘rta va kichik hajmli uchirindilarning chaqmoqlab olish an‘analarining hukm surganganligi hamda yirik uchirindilarning umuman uchramasligidadir. Sanab o‘tilgan jihatlari bilan Boshog‘itma 1-kompleksi O‘zbekistonning boshqa o‘rta paleolit davri materiallaridan farq qiladi.

Boshog‘itma 2-kompleks toshga ishlov berish ustaxonasi bevosita slanes jinsli tosh konlari ustida joylashgan. Texnik-tipologik va qo‘llanilgan xom-ashyo tarkibiga ko‘ra ushbu kompleks industriyasi jigarrang kremniydan tarkib topgan Boshog‘itmaning birinchi kompleksidan tubdan farq qiladi. Boshog‘itma 2-kolleksiyasida yirik uchirindilardan ishlangan bir-ikki zarb maydonli hamda keng zarb maydondan, tanovorning ensiz tomonidan chaqmoqlash amaliyoti hukm surgan. Bunday chaqmoqlash usullari O‘rta Zarafshon vohasidagi Zirabuloq makonining o‘rta paleolitga oid komplekslari uchun ham xosdir. Boshog‘itma

---

<sup>45</sup>Окладников А. П. Исследование мустьерской стоянки погребения неандертальца в гроте Тешик-Таш / Тешик-Таш. Палеолитический человек. – М.: АН СССР, 1949; O‘sha muallif: Ходжикентская пещера – новый мустьерский памятник Узбекистана / КСИА. – М., 1961. Вып. 82. – С. 68–76. Сулеймаиов Р. Х. Статистическое изучение культуры грота Обирахмат. – Ташкент: ФАН, 1972.

<sup>46</sup>Elmuratov B. A., Madreymov B. J. The oldest early paleolithic workshop of Karakuduk–Ustyurt // Science and education in Karakalpakstan. – Nukus, 2023. – №3/1 (34). – Pp. 174–177. Madreymov B. DJ. Borsa-Kelmes botig‘i paleoliti zamonaviy tadqiqotlarda (Esen-2 va Qoraquduq 1-3 toshga ishlov berish ustaxonalari materiallari asosida) Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Avtoreferati Toshkent-2023

2-kompleksi tom ma'nodagi ustaxona bo'lib, bu yerda faqatgina toshlarga birlamchi ishlov berish faoliyati amalga oshirilgan.

Xuddi O'rta Zarafshon vohasi va O'zbekistonning boshqa o'rta paleolitga oid komplekslari qatori, Boshog'itma 2-kompleks ustaxonasi uchirindilarining zarb maydonchalari asosan tekis xarakterga ega. Shuningdek ayrim fasetkalashtirilgan, ikki qirrali, chiziqsimon va tabiiy zarb maydonchali uchirindilar ham uchraydi.

Boshog'itma 2-kompleks industriyasini O'zbekistonning boshqa o'rta paleolit davri komplekslaridan ajratib turadigan xususiyati, bu unda levallua texnologiyalarining uchramasligidadir. Ma'lumki, O'zbekistonning o'rta paleolitga oid aksariyat texnokomplekslari levallua texnologiyalari asosida rivojlangan.

Boshog'itma 3-kompleksi shu nomli botiqning shimoli-g'arbiy bortida, 2-ustaxonadan 1 km masofada joylashgan. U bevosita kremniylashgan va qumli slanes konlarining ustida joylashgan. Ushbu kompleksdan ham asosan birlamchi ishlov berilgan tosh buyumlargina topildi. Shuning uchun ushbu topilmajoyi ham tom ma'nodagi ustaxonalar qatoriga kiritish mumkin. Kompleksning tosh buyumlarini aksariyati qumli slanesdan ishlanganligi bilan ajralib turadi. Yodgorlikda aniqlangan tor va uzunchoq proporsiyali plastinalar chaqmoqlab olishga mo'ljallangan bir dona yonlama nukleus O'rta Zarafshon va Toshkent vohalarining ilk so'nggi paleolitga oid komplekslari uchun xarakterlidir. Boshog'itma 3-kompleksi tosh industriyasini parallel levallua texnologiyalariga asoslangan texnokompleks deyish mumkin. Bu yerda bir va ba'zan qarama-qarshi yoki perpendikulyar subparallel dorsalli uzunchoq levallua plastinalar asosiy o'rin egallaydi. Ushbu plastinalar, ayniqsa, Zirabuloqning qumli slanesdan ishlangan levallua plastinalarga juda o'xshashligi bilan ajralib turadi. Boshog'itma 3-kompleksning ushbu plastinalari asosan tekis zarb maydonchali. Bu plastinalarning profillari qayrilgan, zarb tepaliklari diffuzivlari ham mavjud. Yuqoridagilarni hisobga olib, Boshog'itmaning 3-kompleksi ilk so'nggi paleolit davri bilan nisbiy sanalanishi mumkin.

***Oyoqog'itma (1-11-punktlar)*** botig'i hovuzining sharqiy qismidan so'nggi paleolit davriga tegishli 11 ta punkt aniqlandi. A. V. Vinogradov topilmalaridan farqli ravishda bu yerdan ilk marotaba levallua nukleus, ko'p fasetkali kesgich topilgan<sup>47</sup>. Ularning deyarli barchasi patina bilan qoplangan kremniylardan ishlangan. Tadqiqotchilarning fikricha, ushbu 11 ta punktdan topilgan tosh buyumlar Orol-Kaspiybo'yining so'nggi paleolit davri materiallariga o'xshashliklarga ega<sup>48</sup>.

So'nggi paleolit davriga oid Oyoqog'itma punktlarini (1-11-punktlar) Boshog'itma 3-topilmajoyi bilan har ikkala topilmajoylarda ham levallua texnologiyalarining qo'llanilganligi bog'lab turadi. Biroq Oyoqog'itmaning so'nggi paleolitga oid punktlari industriyasida ikkilamchi ishlov berilgan tosh qurollarning mavjudligi ushbu topilmajoylarni bir-biridan ajratib ham turadi. Shuningdek, Oyoqog'itma punktlarida ko'proq kremniy va kremniylashgan tosh

---

<sup>47</sup>Сайфуллаев Б. К. Новые данные по палеолиту Аякагитминской впадины. // Ўзбекистонда археологик таджикотлар. – Самарканд, 2012. – Б. 217–220.

<sup>48</sup>Сайфуллаев Б. К. История и археология Турана. №3 Самарканд. 2017. – С 36.

jinslaridan foydalanilgan bo'lsa, Boshog'itma 3-kompleksida asosan slaneslardan ishlangan tosh buyumlar ustunlik qiladi. Aytish mumkinki, Oyoqog'itmaning so'nggi paleolitga kiritilgan komplekslari materiallari shu nomli botiqning terrasalarida joylashgan makonlardan oqib tushgan materiallardan tarkib topgan bo'lsa, Boshog'itma 3-kompleksi tom ma'nodagi toshga ishlov berish ustaxonasidir.

***Oyoqog'itma II neolit makoni*** materiallari Oyoqog'itma I makoni materiallariga o'xshash. Shuningdek har ikkala makonlarda ham bir xil xom-ashyo va toshga ishlov berish strategiyalaridan foydalanilgan. Faqatgina Oyoqog'itma I makoni dengiz sathidan 220 m balandlikda, Oyoqog'itma II makoni esa 222 m balandlikda joylashgan. Bundan tashqari, Oyoqog'itma II makoni tosh buyumlari orasida bir dona bo'lsa ham oq kaxelongdan ishlangan va Kaltaminor madaniyatining ikkinchi yarmi uchun xos bo'lgan kamon o'qining topilishi Oyoqog'itma II makonini shu nomli birinchi yodgorlikdan yoshroq bo'lishi mumkin, degan xulosaga kelish imkonini beradi. Suv manbalari sathining global pasayib borishi nuqtai-nazaridan qaraganda Oyoqog'itma II makonida hayot hukm surgan paytlarda botiqda suv sathi 20 m larga pasaygan bo'lgan. Aytish mumkinki, neolit davrining boshlarida Oyoqog'itma ko'li Sharqiy sohillarini egallagan oyoqog'itmaliklar uzoq vaqt mobaynida botiq atrofida istiqomat qilganlar.

Uchinchi bobning 2-paragrafi "Madaniy xususiyatlari"ga bag'ishlangan. Boshog'itma 1-kompleks va Oyoqog'itma II hududidan topilgan paleolitga oid to'plamlarning tosh industriyasi chaqmoqlashning qo'polligi, uchirindilarning qalinligi, zarb tepaliklari va sharnirlarining yorqinligi bilan ajralib turadi. Ehtimol, ushbu komplekslarni o'rta paleolitning boshlari bilan sanalash mumkin. Tilga olingan har ikkala komplekslarda industriyasida ham levallua texnologiyalari kuzatilmaydi.

Boshog'itma 1-kompleksi va Oyoqog'itma II hududidan topilgan paleolitga oid topilmajoylari industriyalariga analogiyalar sifatida O'zbekistonda faqat Orol-Kaspiybo'yi madaniyatlari doirasiga kiritilgan Qoraquduq ustaxonasining 1-kompleksi materiallarini keltirish mumkin. Ushbu komplekslar industriyalari saqlanish darajasi, chaqmoqlash texnologiyalarining qo'polligi va qurollar tarkibida tosh pichoqlarning uchrashi, qirg'ichlar hamda tishsimon-kertikli elementlarning ustunligi bilan o'xshashdir. Ushbu komplekslar O'zbekistonning levallua komponenti aralashgan boshqa yodgorliklariga o'xshamaydi. Janubi-sharqiy Qizilqum hududlari dastavval Shimoli-g'arbiy paleolit davri madaniyatlari tomonidan o'zlashtirilgan.

Boshog'itmaning 2-kompleksi tosh industriyasi ham texnik-tipologik jihatdan Janubi-g'arbiy Qizilqumning boshqa topilmajoylariga o'xshamaydi. Shuningdek, mazkur kompleksning industriyasi faqatgina slaneslardan, asosan qumli slaneslardan ishlab chiqarilganligi bilan ham ajralib turadi. Kolleksiyada bir-ikki zarb maydondan chaqmoqlangan uchirindilar ustunlik qiladi. Dorsallarining xarakteriga ko'ra chaqmoqlash asosan bir yo'nalishda amalga oshirilgan. Plastinalar va levallua chaqmoqlash texnikasi uchramaydi. Levallua texnikasining uchramasligi bilan ushbu kompleks Oyoqog'itma II neolit makoni hududidan

topilgan paleolitga oid hamda Boshog‘itma 1-komplekslariga yaqinlashadi. Shuningdek yodgorlikda qo‘lga kiritilgan yo‘nilg‘ilar nisbatan yirik hajmdaligi bilan ajralib turadi. Texnik-tipologik ko‘rsatgichlarga ko‘ra kompleksni tipik-mustye madaniyatiga kiritish mumkin.

Janubi-g‘arbiy Qizilqumning levallua mustyega (Qizilnura-16) oid kompleksi O‘rta Zarafshon vohasi, so‘nggi paleolitga oid komplekslari (Oyoqog‘itma II paleoliti va 1-11-punktlar) esa avvalombor, Orol-Kaspiybo‘yi paleoliti materiallari bilan qiyoslanishi mumkin. Ammo A. V. Vinogradov davrida O‘rta Zarafshonning o‘rta paleoliti (Qo‘tirbuloq, Zirabuloq makonlari) hali fanga ma‘lum qilinmagan edi. Tadqiq qilingan hududning ayrim komplekslari (Qizilnura 16 va Boshog‘itma 3-kompleks) aynan, O‘rta Zarafshon vohasidagi Qo‘tirbuloq va Zirabuloq materiallariga o‘xshashligi va o‘zaro yagona madaniy birlikni tashkil qilishi mumkinligi aniqlandi.

Oyoqog‘itma II neolit makonining madaniy va davri xususiyatlari borasida yodgorlikni Oyoqog‘itma I makoni materiallari bilan qiyosiy tahlillar ma‘lumot berishi mumkin. Yodgorlikdan topilgan qalamsimon nukleus, plastina, plastinka va mikroplastinkalar Oyoqog‘itma I makoni madaniy qatlamlarida ham uchraydi. Bundan tashqari, har ikkala makonlarda ham tosh qurollar ishlab chiqarishda bir xil xomashyo manbalaridan foydalanilgan. Oyoqog‘itma II makoni shu nomli birinchi yodgorlik bilan yagona Kaltaminor madaniyatining ilk bosqichlarini namoyon qiladi.

III bobning oxirgi paragrafi **“Tosh davri aholisining xo‘jalik hayoti”** deb nomlangan. Ma‘lumki, Qizilqum hududi, jumladan, uning Janubi-g‘arbiy qismi ham o‘rta paleolit davrida neandertal tipidagi odamlar tomonidan o‘zlashtirilganligi haqidagi fikrlar fanda mustahkamlangan<sup>49</sup>. Cho‘l hududidan o‘rta paleolit davrini xarakterlaydigan ko‘plab topilmajoylar aniqlangan va ularning aksariyati hozircha, Janubi-g‘arbiy Qizilqum hududlaridan topilgan. Oyoqog‘itma (A. V. Vinogradov topilmalari), Qorasigir (Qizilnura 1-16-punktleri), Boshog‘itma (1 va 2) komplekslari shular jumlasidandir. Afsuski, bu komplekslarning madaniy qatlamlari buzilgan va ularning katta qismi kremniylashgan xom-ashyo konlari atroflarida joylashgan ustaxonalardir. Hududning paleolitga oid topilmajoylaridan faqatgina tosh buyumlargina aniqlangan.

Janubi-g‘arbiy Qizilqum qadimgi tosh davri aholisining xo‘jaligi haqida faqat tosh buyumlarga ko‘ra fikr yuritish imkoni mavjud. Dissertatsiyada madaniy qatlamlari buzilgan o‘rta paleolit davriga oid Boshog‘itma 1-kompleks hamda Oyoqog‘itma botiqdagi so‘nggi paleolitga oid, deb topilgan Oyoqog‘itma II (paleolit davriga oid topilmalari) va 1-11-punktleri bir paytlar ushbu botiqlarning bortida joylashgan makonlar bo‘lgan.

Pleistotsen davrining ikkinchi yarmida Janubi-g‘arbiy Qizilqum hududidagi Oyoqog‘itma, Boshog‘itma va boshqa botiqlar chuchuk suvlar bilan to‘lgan bo‘lgan. Yog‘irgarchilik hozirgiga qaraganda bir-necha baravar ko‘p yoqqan. O‘rta

---

<sup>49</sup>Виноградов А. В. Охотники и рыболовы Среднеазиатского междуречья. – М. «Наука», 1981. – С. 7.

paleolit davri odamlari ana shu botiqlar bortlariga kelib joylashib, bu yerlarni makon tutganlar. Ma'lumki, paleolit davri aholisining asosiy mashg'uloti ovchilik va termachilik bo'lgan. Keyinchalik tabiiy ta'sirlar tufayli botiqlarning eng yuqori terrasalarida joylashgan o'rta va so'nggi paleolit davri makonlari buzilib, materiallar pastga – neolit davri makonlariga va botiqning hovuziga oqib tushib qolgan. Buning yorqin misoli sifatida Oyoqog'itma II neolit makoni ustida va atrofidan topilgan so'nggi paleolit davri materiallarini hamda botiqning qurigan hovuzidan topilgan 1-11-punktlar artefaktlarini misol keltirish mumkin.

O'rta paleolitga oid Boshog'itma 1-topilmajoyi va so'nggi paleolit davri bilan belgilangan Oyoqog'itma II neolit makoni hamda 1-11-punktlar hududlari materiallari orasida ikkilamchi ishlov berilgan tosh qurollar seriyalari uchraydi va ular hayvon terilarini shilishda, maydalashda foydalanilgan. Tosh qurollar kremniy va kremniylashgan tosh jinslaridan ishlangan. Bunday xomashyo turlari ushbu botiqlar atroflarida uchraydi, ya'ni xom-ashyo mahalliy xarakterga ega bo'lgan.

Oyoqog'itma botig'ining hovuzidan 2012-yilda aniqlangan 1-11-punktlar, Oyoqog'itma II neolit makoni paleolit davri materiallari hamda Boshog'itma 3-kompelks ustaxonasi artefaktlari texnik-tipologik jihatdan so'nggi paleolit davrini xarakterlaydi. Bu yerdan topilgan materiallar orasida levallua tipidagi uchirindilar va plastinalar, bir-ikki zarb maydonli nukleuslar va kesgichlar uchraydi. Ushbu topilmajoylar Janubi-g'arbiy Qizilqum hududida aniqlangan so'nggi paleolit davriga oid dastlabki yodgorliklar hisoblanadi. Topilmalar, nafaqat, ovchilik va termachilik, balki yog'ochga, teriga va suyakka ishlov berilganligi haqida ham guvohlik beradi. Aytish mumkinki, Oyoqog'itma botig'ining sharqiy va shimoliy hamda Boshog'itma botig'ining sharqiy terrasalari nafaqat o'rta, balki so'nggi paleolit davrlarida ham istiqomat qilingan. Bu makonlarda toshlarni chaqmoqlashning konseptual levallua texnologiyalari hukmron bo'lgan. Suyakdan ishlangan buyumlar saqlanib qolmagan.

Oyoqog'itma II neolit makoni bitta eng quyi qatlamini saqlab qolgan (40 sm). Qatlamdan tosh buyumlar bilan birga oxra va hayvon suyak qoldiqlari aniqlandi. Biroq suyak qoldiqlari maydalanib ketgan, butunlari ham mayda sut emizuvchilarga tegishli. Tosh industriyasining xarakteriga ko'ra yodgorlik 4 km shimoliy-sharqroqda joylashgan Oyoqog'itma I makoniga o'xshash.

Hududning paleoxo'jaligi haqida avval o'rganilgan Oyoqog'itma I ilk neolit makoni topilmalari anchayin to'liq ma'lumotlarni beradi. Bu yerdan xonakilashtirilgan qoramol va qo'y-echkilarning suyak qoldiqlari aniqlangan. Bu Kaltaminor madaniyati sohiblarining nafaqat ovchi-baliqchi, balki primitiv chorvadorlik bilan ham shug'ullanganliklari haqida qimmatli ma'lumotlarni berdi<sup>50</sup>.

Oyoqog'itma II neolit makonining va ko'lining atrofidagi hududlardan 2021-yilda ko'plab topilmalarning topilishi botiqda neolit davri jamoalari anchayin zich istiqomat qilganliklarini ko'rsatdi<sup>51</sup>.

<sup>50</sup>Brunet F. Comment penser la néolithisation en Asie centrale (Xe-IVe millénaires) ? L'émergence de nouveaux modèles de sociétés entre sédentaires et nomades // Paléorient №37/1, Paris. 2011. -P. 187-204;

<sup>51</sup>Сайфуллаев Б. Қ.Мозейдан садо 4/92. 2021 йил 20-23 бетлар

Hozirgi ma'lumotlarga ko'ra, aytish mumkinki, Janubi-g'arbiy Qizilqum hududlari o'zining qulay paleoekologik sharoitlari, xom-ashyo konlari, botiqlarda chuchuk suv havzalarining seroblighi va bu suvlarda baliqning mo'l-ko'llighi, atrofda boy fauna va floraning mavjudligi bilan ibtidoiy odamlarni o'rta paleolitning boshlaridanoq (300 ming yillar muqaddam) o'ziga jalb qilib kelgan. Bunday o'zlashtirish o'rta paleolit davriga kamida ikki marta sodir bo'lgan. Bunga turli bosqichlarga va muhimi turli madaniyatlarga oid Boshog'itma 1 va 2-komplekslari (tipik-mustye) va Qizilnura-16 (mustye-levallua) kabi topilmajoylarning materiallari guvohlik beradi<sup>52</sup>.

Shunday qilib, Janubi-g'arbiy Qizilqumning tosh davri jamoalari dastlab ovchilik va termachilik bilan shug'ullangan bo'lsa, keyinchalik baliqchilik hamda primitiv chorvachilikni kashf qilganlar. Buning uchun hududda barcha qulay paleoekologik sharoitlar mavjud bo'lgan.

## XULOSA

1. Markaziy Osiyoning eng yirik cho'l hududi bo'lgan Qizilqum, paleoekologik va geografik jihatdan ibtidoiy insonlar uchun nisbatan qulay yashash muhitini yaratgan. Ushbu hududdagi sug'orish imkoniyati mavjud landshaftlar, xususan, doimiy suv manbalari – Amudaryo, Sirdaryo va Zarafshon daryolari vodiylari hamda ularning delta hududlari ibtidoiy jamiyatning shakllanishi va rivojlanishi uchun muhim ahamiyat kasb etgan.

2. Arxeologik tadqiqotlar natijasida Janubi-g'arbiy Qizilqum hududi, xususan, o'rta paleolit davrida ushbu daryolar delta etaklarida joylashgan qator arxeologik yodgorliklar aniqlangan. Bunday yodgorliklarga quyidagilarni misol tariqasida keltirish mumkin: Oyoqog'itma I-II, Boshog'itma, Qorasigir, Qarakata, Lavlakon, Beshbuloq, Mingbuloq, Ko'chbuloq, Jonkeldi va boshqalar. Ushbu yodgorliklar paleolit va neolit davrlariga mansub bo'lib, ular Janubi-g'arbiy Qizilqumdagi ibtidoiy insonlarning iqlimga moslashuvi, suv resurslaridan foydalanishi hamda mos ravishda jamiyatning rivojlanish bosqichlarini o'rganishda muhim manba hisoblanadi.

3. Atrof-muhitning qulay bo'lishi neandertallarning ham tog'li, ham cho'lli hududlariga keng tarqalishiga olib keldi. Qizilqum hududlaridan ham qator mustye davri yodgorliklari aniqlangan (Qizilnura, Lavlakon, Kindiktepa) Oyoqog'itma topimajoyi va Boshog'itma botig'i atrofi bunga yaqqol misol bo'ladi. Golotsen davrida esa tabiiy muhit va insoniyat jamiyati taraqqiyoti tez sur'atlar bilan kengayishi va ular orasidagi o'zaro aloqalarning murakkablashuvi orqali sodir bo'ldi. Paleoklimatik va paleogeografik tadqiqotlar asosida aniqlanishicha, eotsen davrida O'rta Osiyo hududlarida o'rmon hamda o'rmon-dasht landshaftlari hukmron bo'lgan. To'rtlamchi davrga kelib, aridlashuv jarayoni kuchayadi va Markaziy Osiyoda cho'l landshaftlari paydo bo'ladi hamda ularning maydoni kengaya boshlagan.

---

<sup>52</sup>Виноградов А. В., Мамедов Э. Кызылнурa 1 – первый мустьерский памятник в Кызылкумах. – САН № 1, 1969. – С. 84-97

4. Qizilqum hududi XX asrning 40-yillaridan intensiv tadqiqot obyektiga aylantirilgan. Cho'l hududlari pleystotsenning oxiri – golotsenning boshlarida bepoyon vodiylar va "ming ko'llar mamlakati" bo'lganligi aniqlangan. Tosh davri aholisi ushbu vodiylarda o'rta paleolit davrida ovchilik va termachilik, neolit davrida esa ovchilik-termachilikdan tashqari, keng ko'lamda baliqchilik bilan shug'ullanganligi aniqlangan. Oyoqog'itmada yaqin yillarda olib borilgan tadqiqotlar kaltaminorliklarning chorvachilik bilan shug'ullanganligi, qo'y-echki, qoramol va tuya kabi hayvonlarni xonakilashtirganliklarini aniqladi. Aytish mumkinki, kaltaminorliklar nafaqat ovchi-baliqchi, balki chorvadorlar ham bo'lganligi ma'lum qilindi.

5. 1995-yilda Oyoqog'itma I va 2021-yilda muallif tomonidan topilgan Oyoqog'itma II hamda Jonkeldi neolit davri toshga ishlov berish tom ma'nodagi ustaxona ham Kaltaminorning klassik yodgorliklari safiga kiritish mumkin. Ushbu makon nafaqat hayvonlarni xonakilashtirish, balki Kaltaminor madaniyatining sanasini 700 ming yilga ham qadimiylashtirdi. Bugungi kunga kelib, Kaltaminor Markaziy Osiyoning eng qadimgi neolit davri madaniyatlari (Joytun) bilan tengdosh ekanligi isbotlangan.

6. Oyoqog'itma ko'lining g'arbiy va janubiy sohillari paleolit davri topilmalariga boydir. Yuqorida ta'kidlanganidek, ushbu tosh buyumlar o'ziga xosligi va rang-barangligi bilan ajralib turadi. Albatta, ushbu topilmalar qachonlardir ko'lining yuqori terassasida yashagan paleolit davri odamlarining buzilgan makonlaridan yomg'ir-qor suvlari ta'sirida oqizib keltirilgan. Chunki, bu yerlarda qadimda ibtidoiy odamlar yashashi uchun hamma sharoitlar bo'lgan. Oyoqog'itma botig'ining g'arbiy sohillarida (ko'lining 1-terراسasi) yuqori sifatla kremniy konlari mavjud.

7. Topilgan materiallarning sanasi masalasi ularni talqin qilishning eng murakkab sohalaridan biridir. Shunday bo'lsa-da, Oyoqog'itma botig'idagi 11 ta punktdan olingan materiallar orasida plastinalar olishga mo'ljallangan levallua nukleuslar, murakkab texnologiyali byuske tipidagi kesgich, kombinatsiyalashgan qurollar va boshqa tosh buyumlarning topilishi bu yerda yuqori darajada taraqqiy qilgan so'nggi paleolit davri texnikasi hukm surgan deyishga imkon beradi. Shuningdek, pastsifatli kvarts xomashyosidan ishlangan levallua nukleuslarining mavjudligi ham fikrimizni isbotlaydi.

8. Ta'kidlash joizki, Oyoqog'itma botig'idan topilgan materiallar A. V. Vinogradov topgan paleolit davri materiallardan farq qiladi. Jumladan, 7-punktdan topilgan byuske tipidagi murakkab texnologiyali kesgich hamda qirralaridan biri o'tmaslashtirilgan plastinalarning topilishi O'zbekiston paleolitida yangi hodisadir.

9. Oyoqog'itma II neolit makoni hududidan topilgan paleolitga oid tosh buyumlar biroz deflyatsiyaga uchraganligi bilan ajralib turadi. Ular orasida qalin va tekis zarb maydonchali uchirindilar ko'pchilikni tashkil qiladi. Ushbu topilmalarning madaniy-davriy xususiyatlari borasida biron fikr bildirish qiyin. Aytish mumkinki, ushbu materiallar quyi terassa shakllanib, bu joyga neolit davri jamoalari kelib o'rnamashganlaridan keyingina yuqoridagi terrasadan oqib tushgan.

Oyoqog‘itma II topilmajoyi paleolit davri materiallarining aksariyati bevosita neolit makoni ustida emas, balki yodgorlikni kesib o‘tgan jarlik yonbag‘irlaridan yig‘ib olingan.

10. Oyoqog‘itma botig‘i o‘zanidan 2012-yilda 11 ta punkt, 2021-yilda Oyoqog‘itma II makoni yerni yuza qismi va shu yili Boshog‘itma botig‘i atrofidan yig‘ib olingan materiallar o‘rta hamda so‘nggi paleolit davri bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Bunday materiallar orasida pichoq, tig‘, qirg‘ich va murakkab kesgichlarning mavjudligi ularni mustye hamda so‘nggi paleolit davri bilan sanalish imkonini beradi. Ehtimol, botiqning yuqori terassasida mustye va so‘nggi paleolitga oid manzilgohlar ham mavjud bo‘lgandir. Tabiiy ravishda, yuqori terassaning so‘nggi paleolitga oid ustki qatlamlari mustyega nisbatan ertaroq yemirilgan va tabiiy ta’sirlar oqibatida avvalroq past, ya’ni botiqning eng chuqur o‘zaniga oqib tushgan. U holda, xulosa qilish mumkinki, Qizilqum hududi, ayniqsa, uning janubi-g‘arbiy sarhadlari o‘rta va so‘nggi paleolit davri jamoalari tomonidan o‘zlashtirilgan.

11. Shu o‘rinda, Boshog‘itma 1-kompleksidan asosan, o‘rta hajmli uchirindilar, ayrim nukleuslar, qirg‘ichlar, kesgich, tig‘ va tishsimon hamda kombinatsiyalashgan qurollar yig‘ib olinganligini alohida qayd etish kerak. Ushbu kompleks o‘zining faqat kremniylardan ishlanganligi va o‘rta darajada deflyatsiyaga uchraganligi bilan ajralib turadi. Bunday holat ushbu kompleksning madaniy-davriy jihatdan hududdagi boshqa kolleksiyalardan farq qilishini ko‘rsatadi, ya’ni u botiqdagi eng qadimgi kompleksdir.

12. Boshog‘itmaning 2-kompleksi asosan, slanesdan ishlangan tosh buyumlarning ustunligi bilan ajralib turadi. Ushbu to‘plam Boshog‘itma 1-kompleksidan tashqi deflyatsiyaga uchramaganligi bilan farq qiladi. Shuningdek, tosh qurollarning mavjud emasligi topilmajoyini toshga birlamchi ishlov berishga mo‘ljallangan tom ma’nodagi ustaxonalar darajasiga ko‘taradi. Levallua texnikasi uchramaydi. A. V. Vinogradov tomonidan Qorasigir botig‘i hududidan levallua-mustye komplekslarining (Qizilnura 16) o‘rganilganligini hisobga olib, aytish mumkinki, Janubi-g‘arbiy Qizilqum hududi o‘rta paleolit davri aholisi tomonidan kamida ikki marotaba o‘zlashtirilgan.

13. Boshog‘itmaning uchinchi kompleksida parallel-levallua tipidagi plastinalar chaqmoqlab olish amaliyoti katta o‘rin tutadi va u O‘rta Zarafshon vohasining ilk so‘nggi paleoliti madaniyatlari doirasiga kiritilishi mumkin. Xulosa o‘rinda shuni ta’kidlash joizki, A. V. Vinogradov fikriga ko‘ra, Janubi-g‘arbiy Qizilqum hududi o‘rta paleolit davridagi ibtidoiy insonlar tomonidan o‘zlashtirilgan. Ammo, paleoantropologik artefaktlarning yodgorliklardan uchramaganligi, xususan, neandertal tipidagi ibtidoiy odamlar jamoasi faoliyati natijasida o‘zlashtirilgan degan fikrni aytishga hali erta. Shu o‘rinda, A. V. Vinogradov tomonidan ilgari surilgan, qarashlarga qo‘shilish mumkin. Ammo, ushbu olim mazkur hududda aynan mustye davri tosh buyumlari hamda qadimgi insonlarning madaniy-davriy xususiyatlariga oid hech qanday ma’lumot bermagan.

14. Shunday qilib, Janubi-gʻarbiy Qizilqum hududini dastlab Orol-Kaspiyboʻyidan tashrif buyurgan tipik mustye jamoalari, soʻngra Oʻrta Zarafshon vohasining ilk soʻnggi paleolit davri madaniyatlari va keyinchalik yana Orol-Kaspiyboʻyining soʻnggi paleolit davri madaniyatlari tomonidan oʻzlashtirilgan hamda keyingi taraqqiyot bosqichlari uchun zamin hozirlangan va turli madaniyatlar kesishgan chorraha deyish mumkin. Masalan, Janubi-gʻarbiy qizilqumliklar tosh industriyasida qoʻllanilgan tosh xomashyosini Uraldan emas, balki Qizilqumning oʻzidagi mavjud konlardan olib kelib ishlatishgan.

15. Tadqiqotlar natijasida bildirilgan fikr-mulohazalar quyidagi taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish imkonini beradi:

Janubi-gʻarbiy Qizilqumda keng tarqalgan tosh davri madaniyatlarini umumlashtirgan va tizimlashtirgan monografik asarlar, respublikadagi oliy oʻquv yurtlari talabalari uchun darsliklar va oʻquv qoʻllanmalar yaratish;

republikadagi tarix va arxeologiya muzeylarida tosh davri moddiy madaniyatiga bagʻishlangan keng qamrovli ekspozitsiyalar tashkil qilish va ushbu davr tarixini keng omma orasida targʻib qilish;

Oyoqogʻitma II neolit makonini “Ochiq osmon ostidagi muzey”ga aylantirish va unga turistik marshrutlar tashkil qilish;

Oʻrta Osiyo hududida keng tarqalgan tosh davri arxeologiyasi yangiliklari va muammolariga bagʻishlangan xalqaro konferensiyalar oʻtkazish zarur.



**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.02/02.30.12.2019. Tar.45.01. ПО  
ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ  
ПРИ НАЦИОНАЛЬНОМ ЦЕНТРЕ АРХЕОЛОГИИ  
НАЦИОНАЛЬНЫЙ ЦЕНТР АРХЕОЛОГИИ**

**ЭЛМУРАТОВ БАХОДИР АБДУГАППАРОВИЧ**

**КУЛЬТУРЫ КАМЕННОГО ВЕКА ЮГО-ЗАПАДНЫХ КЫЗЫЛКУМОВ**

**07.00.06 – Археология  
(исторические науки)**

**АВТОРЕФЕРАТ**

**диссертации доктора философии (PhD) по историческим наукам**

**Ташкент-2025**

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии за номером B2023.3.PhD/Tar1150.

Диссертация выполнена в Национальном центре археологии.  
Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещён на веб-странице Научного совета ([www.archaeology.uz](http://www.archaeology.uz)) и на Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)).

Научный руководитель:

**Сайфуллаев Бахтиёр Курбонвич**  
Доктор исторических наук, профессор

Официальные оппоненты:

**Сулейманов Рустам Хамидович**  
Доктор исторических наук, профессор

**Мирсоатова Сайёра Тургуновна**  
Кандидат исторических наук, доцент

Ведущая организация:

**Самаркандский государственный университет**

Защита диссертации состоится «12» 11 2025 г. в 14<sup>00</sup> часов на заседании Научного совета DSc.02/02.30.12.2019.Tar.45.01. по присуждению ученых степеней при Национальном центре археологии АН Республики Узбекистан (Адрес: 100170, город Ташкент, улица Мирзо Улугбека, дом 81). Тел.: (99871) 262-64-62, e-mail: [uzarchae@academy.uz](mailto:uzarchae@academy.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в библиотеке Национального центра археологии и Фундаментальной библиотеке Академии наук Республики Узбекистан (зарегистрирована за № 79). (Адрес: 100170, г. Ташкент, Мирзо Улугбекский район, ул. Зиёлилар, 13. Тел.: (99871) 262-74-58; Факс: (99871) 262-34-41).

Автореферат диссертации разослан «28» 10 2025 года.  
(реестр протокола рассылки № 4 от «28» 10 2025 года.)



**Ф. А. Максудов**  
Председатель Научного совета  
по присуждению ученых степеней, д.и.н. профессор

**З. О. Рахмонов**  
Ученый секретарь Научного совета  
по присуждению ученых степеней, д.ф.и.н.

**А. А. Анарбаев**  
Председатель Научного семинара при  
Научном совете по присуждению  
ученых степеней,  
д.и.н., профессор.

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** Формирование и развитие исторической науки в мировом масштабе требует проведения отдельных исследований по археологии каменного века, в частности палеолита и неолита. Современные научные исследования в этом направлении, прежде всего, нацелены на комплексное изучение культурно-временных особенностей археологических артефактов, их взаимосвязи с палеоэкологической средой и природно-географическими ландшафтами. Особую актуальность приобретает вопрос введения в научный оборот новых археологических данных и проведения научно обоснованных исследований путем их тщательного стратиграфического, технологического и хронологического анализа.

В мировой палеолитоведении применяются новые методологические подходы к систематизации и анализу археологических артефактов, обнаруженных в малоизученных перспективных регионах, таких как Юго-Западный Кызылкум. В этой связи технологические исследования таких ученых, как М. Н. Брезильон и Ж. Пелигрин, а также работы В. Т. Петрина и А. П. Деревянко по методам оценки «механической эрозии» и других физических воздействий, применяемых в изучении палеолита Восточной и Центральной Азии, остаются актуальными для современной археологии. Использование этих методов для определения степени естественных изменений находок и восстановления археологического контекста представляет собой одну из важнейших задач в современных археологических исследованиях.

Природно-географическая структура пустыни Кызылкум занимает важное место в нашей стране и считается одним из культурных центров эпох палеолита и неолита. Мастерские Башагитма, впадина Аякагитма и неолитические стоянки предоставляют информацию о деятельности первобытного человека, социальных отношениях и технологическом развитии посредством типологического и технологического анализа каменных изделий. Из-за низкой сохранности органических веществ основным источником являются каменные охотничьи и трудовые орудия. Палеотехнологические и геоархеологические методы изучения взаимоотношений человека и природы, а также миграционных процессов, достойная оценка их места в мировой цивилизации, сравнительный глубокий анализ истории нашей страны и мира, наряду с исследованиями, проводимыми при сотрудничестве Узбекистана и Франции (MAFAC) и государственной поддержке, еще больше повышают научную значимость этого региона. Это показывает, что Кызылкумский регион является важным перекрестком не только для Узбекистана, но и для распространения культур древнего каменного века Приаралья и Прикаспия, что подчеркивает актуальность данного исследования.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит выполнению задач, предусмотренных в Указах Президента Республики Узбекистан No УП-4947 от 7 февраля 2017 года «О Стратегии действий по пяти приоритетным направлениям развития Республики Узбекистан в 2017-2021 годах», Постановлениях Кабинета Министров No ПП-292 от 18 мая 2017 года «О мерах по организации деятельности вновь созданных научно-исследовательских учреждений Академии наук Республики Узбекистан», No ПП-40689 от 19 декабря 2018 года «О коренном улучшении деятельности в сфере охраны объектов материального культурного наследия», No ПП-792 от 21 сентября 2019 года «О коренном совершенствовании археологических исследований», No ПП-6097 от 29 октября 2020 года «Об утверждении концепции развития науки до 2030 года». Данное исследование в определенной степени служит выполнению задач, обозначенных в Постановлении Президента Республики Узбекистан от 30 октября 2021 года No ПП-5270 «О мерах по дальнейшему совершенствованию непрерывной системы подготовки квалифицированных кадров в сфере туризма, культурного наследия и музееведения»<sup>1</sup>, таких как развитие научно-исследовательской и инновационной деятельности, научное изучение, более широкое освещение и обогащение материального и культурного наследия.

**Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий Республики Узбекистан.** Данная диссертация выполнена в рамках приоритетного направления развития науки и технологий республики I. «Формирование системы инновационных идей и пути их реализации в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовно-просветительском развитии информационного общества и демократического государства».

